

ANDIJON DAVLAT TILLAR PEDAGOFIKA INSTITUTI INGLIZ TILI VA ADABIYOTI

FAKULTETI

INGLIZ TILI FONETIKASI VA O'LKASHUNOSLIK KAFEDRASI

# CHET TILI O'QITISH METODIKASI

fanidan ma'ruzalar



Tuzuvchilar:

doc. Sh. Alimov

Katta o'qituvchi A. Ismoilov

ANDIJON-2007

# MA'RUZA MAVZU: CHET ELLARDA VA MAMLAKATIMIZDA CHET TILIGA O'RGATISHNING ZAMONAVIY METODLARI.

## REJA

1. Chet tiliga o'qitish metodlarining takomillashtirib borishning zarurligi.
2. Zamonaviy metodlar (intensiv metodlar) hususida qisqacha sharx.

## ADABIYOTLAR

1. J. Jalolov. Ingliz tili o'qitish metodikasi, "O'qituvchi" nashriyoti. Toshkent.
2. К вопросу об истории развития интенсивных методов зарубежном. Методы интенсивного обучения иностранным языкам. Изд. МГПИИЯ, «Высшая школа» 3, 1977
3. Г. Лозанов Сущность истории и экспериментальные перспективы педагогической системы при обучении иностранным языкам. Изд. МГПИИЯ, «Высшая школа» 3, 1977
3. Г. А. Китайгородская. Методика интенсивного обучения иностранным языкам. Москва, «Высшая школа»
4. Методика преподавания иностранных языков зарубежом. Москва, «Прогресс» 1967.

Hozirgi vatqda nafaqat chet tiliga o'qitish bo'yicha balki barcha fanlarga voprosy o'qitishni, o'rgatishni yangi-yangi metodlarini izlab topish va uni amalda sinab ko'rish to'g'risida ko'p ishlar qilinayapti. Bu hozirgi kundagi ta'lim tarbiya jarayonini yaxshilash, uchun xal qilinishi kerak bo'lgan eng muhim muammolardan biridir.

Agar avval chet tili o'qitish shu til sistemasini o'rganish deb qaralgan bo'lsa, keyingi yillarda o'qitishdagi muhim ko'zlangan narsa bu o'quvchilarni chet til nutqini o'stirishdan iborat bo'ldi. Shuni aytish kerakki chet til o'rganishdagi bu maqsadlar, o'z-o'zidan yoki boshqa kimsalar yoki shaxs tomonidan qo'yilmaydi, balki lingvistika va psixologiya fanlaridagi o'zgarishlar va jamiyatning ijtimoiy rivojlanib borishi bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan: Audiolingval metodni olib ko'raylik. Bu metodning yuzaga kelishiga lingvistika fanidagi o'zgarishlar, ya'ni struktural oqimni ta'siri bo'ldi.

U quyidagi omillarni o'z ichiga oladi:

- Chet til o'rgatish avval og'zaki nutqqa o'rgatishdan boshlanmog'i zarur;
- Til o'rganish turli strukturalar, nutq na'munalari asosida amalga oshiriladi;
- Mashqlar ham tilga asoslangan holda til materialini ko'p marta takrorlashni talab qiluvchi mashqlar bo'lishi kerakligini taqozo etadi;
- Grammanik namunalari va leksikani tanlash chet tili bilan ona tilini qiyoslashning natijalariga bog'liq bo'lishi kerak.
- Talaffuzga katta e'tibor talab etiladi.

Bu metodning asosiy kamchiligi, mexanik mashqlarning ko'pligi va haqiqiy nutq mashqlarining ozligidir. Bu metod asoschilari metodist olimlar Ch.Friz va R.Ladolardir. Masalan: Ch.Friz: boshlang'ich etapning asosiy mazmuni strukturalarni o'rganishni tashkil qilishi kerak deydi. Grammatikaning ko'nikmalarni hosil qilish xam shunga asoslangan bo'lishi maqsadga muvofiq.

Ch.Friz bilan R.Ladoning fikricha o'quvchilar avval og'zaki nutqda ishlatiluvchi strukturalarning (gaplarning) yig'indisini eslab qolishlari kerak.

Keyinchalik shu strukturalar asosida yangi-yangi gaplar tuzishi talab etiladi, ya'ni malaka va ko'nikmalar moil qilinishi kerak. Bular trenirovkaga mo'ljallangan mashqlar yordamida amalga oshiriladi.

Keyinroq g'arbda yangi bir metod shakllana boshladi . Bu " audio-visual" metod edi. Uning asoschilari sifatida Yugoslavyalik metodistlar P.Guberin va Frantsuz Per Rivon, L.Gugeneym va boshqalarni keltirish mumkin. Bu metod tilni (til materialini) eshitish va ko'rish orqali tez eslab qolishga asoslangan. Bu metodning asosiy foydasi shundaki u o'rganayotgan til materialini xayotiy situatsiyaga bog'lab o'rganishni taqozo etadi. Til o'rganish asosan ko'rib, tinglab, tushunishga asoslangan. Bu metod mualliflarining fikrlariga ko'ra kundalik turmushda ko'p uchrab turadigan mavzularni o'z ichiga qamragan (masalan: kvartira, uy jixozlari,savdo-sotiq va x. k.) o'rganishni maqsad qilib qo'yadi. Ularni o'zlashtirish esa asosan ko'rib qabul qilish sezgilari asosida va texnik vositalardan keng foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Chet-til o'qitishni intensivlashtirish masalasi yuzasidan mamlakatimizda va chet ellarda ancha ishlar qilindi va qilinmoqda. Bular yangi intensiv metodlarni yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Xo'sh, intensiv metod o'zi nima? Uni qanday tushinish mumkin?

Intensiv o'qitish degan, so'zning birimch ma'nosi bu- qisqa vaqt ichida o'quvchilarni o'rganilayotgan chet tilida nutq faoliyatini amalga oshirishga, ya'ni gapirishga o'rgatishdir. Bu asosan o'quvchilarning ichki psixologik imkoniyatlariga va hotira zahirasi ta'yan holda amalga oshiriladi. (Leontev A. A. Kitaygorodskaya). Demak, intensiv metod (yoki intensiv) o'qitishning quyidagi ikki harakterli hususiyatini ko'rsatish mumkin:

Qisqa vaqt ichida ma'lum hajmdagi o'quv materialini organish va shunga mos chet tilidagi nutqiy faoliyatni amalga oshirish;

Shaxs hotirasining barcha zahiralardan (psixologik imkoniyatlaridan) maksimal darajada foydalanish ya'ni o'quvchilarning faolligini oshirish.

Keyingi yillarda dars jarayonida o'quvchilar faolligini oshirish yuzasidan ko'p ishlar qilish zarurligi taqozo etilmoqda.

Talaba shaxsi xotirasining ichki imkoniyatlaridan foydalangan holda ularning darsdagi faolligini oshirishda nutqiy muloqot muhitini shakllantirish eng muhim vazifalardan biri. O'qituvchi tomonidan qo'llanilayotgan usullar va turli ko'rgazmali qurollar shu maqsadga yo'naltirilmog'i lozim. Nutqiy muloqotga yo'naltirilgan psixologik vaziyat o'quvchilarning faolligini oshirishdagi zaruriy vazifalardan biridir. Taniqli metodist olimlardan biri E.I.Passovning aytishicha hozirgi vaqtdagi chet til o'qitishda amalda qo'llanilayotgan kommunikativ yondashish nutqiy vaziyatlarga asoslangan tezkor (intensive) o'qitishning bir ko'rinishidir.

### Intensiv metodlar haqida qisqacha sharx.

Intensiv metod dastlab XX asrning boshlarida "To'g'ri" metod asosida shakllana boshladi. Prof. E I. Gezning aytishicha "To'g'ri metod chet tilini intensiv o'qitishga qulay imkoniyat va asos yaratib berdi". To'g'ri metodning ba'zi bir printsipial tomonlarini chunonchi, og'zaki nutqqa bo'lgan qiziqish, ayniqsa dialogik nutq uchun nutqiy vaziyatlar tanlash , o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirish kabi talablari hozirgi zamonaviy intensiv metodlarning u yoki bunisiga asos qilib olingan. Bu tabiiy albatta, chunki har bir yangi metod o'zidan oldin o'tgan metodning yaxshi tomonlarini saqlab qoladi.

So'ngi yillarda audiolingual, audiovizual, gipnopediya, relaksopediya, suggestopediya, ritmopediya kabi yangi bir yo'nalishni bildiruvchi so'zlar tez-tez metodik adabiyotlarda uchrab turadigan bo'lib qoldi.

Shuni aytish kerakki bu nomi tilga olingan metodlardan audiolingual va audiovizual metodlar intensiv o'qitish amaliyotida qo'llana olmaydi. Bunga ularning printsiplal tomoni, ya'ni ona tilini ishlatishga suyanmaslik, til imitatsiyasiga taqlid qilish orqali o'rganish, yod olish va ijodiy mashqlarning ko'pligi halaqit beradi.

Gipnopediya, Relaksopediya - bu metodlar faqat til materialini eslab qolishda yaxshi natijalar beradi, lekin nutqda qo'llashni ta'minlay olmaydi. Shuning uchun ham taniqli olim prof. Gegechkori L.Sh. gipnopediya bilan relaksopediyani chet-til o'qitishda ishlatilishi mumkin bo'lgan priyomlardan deb qarashni taklif qiladi, chunki ular berilayotgan informatsiyani eslab qolishga qaratilgan xolos.

Keyingi yillarda shaxsni ob'ekt sifatida o'rganish va uni barcha ijodiy imkoniyatlarini aniqlashda pedagogika, psixologiya, sotsial psixologiya, meditsina fanlaridagi izlanishlarni birlashtirishga katta e'tibor berilmoqda. Hozirgi vaqtdagi muhim masala o'quvchilarni yangicha fikrlashga, ijodiy fikrlashga va ularni xayotga tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda. Bu esa shaxsni har tomonlama o'rganishga bo'lgan talabni kuchaytiradi. Shunday qilib o'quvchi shaxsi o'quv protsesining markaziy, asosiy figurasiga aylanib qoldi.

G.Lozanov - psixoterapevt, tibbiyot fanlari doktori bolgar olimi - insonni ichki rezerv imkoniyatlarini o'rganishga qaratdi.

U 3 muhim faktorni o'rgannishga kirishdi:

- 1.Hotirani rezervlarini ochish;
2. O'quvchi shaxsini intellektual aktivligini o'rganish;
3. Ijobiy emotsiya, (charchash xissini yuqotadi).

(O'qituvchining roli, avtoriteti; o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi munosabat; o'zaro ishonch, yuqori darajadagi motivatsiya, shaxsning ichki rezerv imkoniyatlarini ochish. (Ushbu tezis izohlanadi). Olimlardan Gegechkori L.Sh. va Leontev A.A. e'tirof qilishlaricha Lozanov metodikasi yoqoridagilarni o'z ichiga oladi:

- 1) ko'p sonli nutq birliklarini o'rganishda;
- 2) o'quvchilarni chet til nutq jarayonida til, lug'at boyligini ishlatishni, o'rganilgan nutq birligini boshqa bir situatsiyada qo'llash malakalarini hosil qilishda;
- 3) o'qishga o'rganishda yuqori motivatsiyani hosil qilishda;
- 4) psixologik to'siqlar bo'lishi (uyatachanglikni, qo'rqinchni, odamovilikni) olib tashlashda juda yaxshi natijalar beradi.

Shunisi harakterliki Lozanov o'z oldiga chet til o'qitish metodikasini ishlab chiqishni vazifa qilib qo'ygani yo'q. 60-70 yillar Lozanov metodikasi chet til o'rganishda qo'llashga harakat qilib ko'rildi. Hozirgi vaqtda olimlar va metodistlar intensiv metodikani mamlakatimizda qollanilayotgan "O'ngli - amaliy" metod bilan mujassamlashgan holda yo'llarini ishlab chiqishdi. Bu metodning (Lozanov) faqat ayrim printsiplarini qo'llash maqsadga muvofiq degan.

1. Эмоционально – смысловой метод (И. Ю. Шехтер) rolli o'yinlar jarayonida mazmunli o'zgartirishga asosiy e'tiborni jalb qilish.

Bunday qarash kishining shaxsiy fikrlashi qandaydir til birliklarining majmuasidan kelib chiqmaydi degan qarashga asoslanadi. Bu metoddagi asosiy vosita - kommunikativ vazifalar sistemasida. Bu metod bo'yicha o'qitish 3 shaklga (davrga) bo'linadi:

a) Xayotda eng ko'p uchraydigan situatsiyalar asosida gapirishga o'rganish. Gramatika organilmaydi, uy vazifasi ham yo'q. Bu davr oxiriga kelib 1200-1400 leksik birlikni o'z ichiga olgan o'quv matnlarini o'qish mumkin.

b) Biror kasb-korga ta'luqli nutqiy jarayonga o'tish. Manologik nutq har tomonlama keng rivojlanadi. Asta-sekin tarjima asarlaridan ko'chirma olish (реферирование) yozuv va gramatika o'rganishga o'tiladi. Ilmiy - sissiy harakterga ega bo'lgan matnlardan foydalanib, kasbga ta'luqli muammoli situatsiyalardan tashkil topgan turli o'yinlar asosida chet til o'rgatish.

c) Nutq tobora ma'lum kasb bo'yicha shakllantirila boriladi. Maxsus matnlar, ishga ta'luqli xujjatlar, kasb bo'yicha xat yozishuvlar o'quv materialini tashkil qiladi.

2. L Gegechkori taklif qilgan intensiv kurs katta yoshdagilarni o'qitishga mo'ljallangan. Bunda ham 3 davr ajratiladi.

Davrlar o'rtasidagi etap (ya'ni til tayorgarligi etapi) bu metodni boshqa metodlar bilan farqlashdagi asosiy xususiyatdir. Bunda til materialini ongli o'zlashtiriladi.

3. Petrograddagi o'rmonchilik akademiyasida talabalarni chet tili o'qitishni intensive metod asosida olib borish yuzasidan eksperiment o'tkazildi. Bunda o'quv jarayoni quyidagicha tashkil qilindi:

1 semestr - chet tilini ongli o'rganishga asoslangan nutqqa tayyorlov mashqlarini bajarish;

2 semestr -G.Lozanov metodikasi asosida dialogic nutqni o'stirish;

3 semestr - til materialini ongli o'rganish asosida keng profilli o'qishga o'rgatish

4 semestr - G.Lozanov metodi asosida monologik nutq o'stirish;

5 semestr - mutaxassislik bo'yicha matnlarni o'rganish;

6 semestr

4."Курс погружения"- Uxlatib qo'yib o'qitish kursi (Plesnevich A. S. Ingliz tili o'qitishda sinab ko'rgan) 10 kunga mo'ljallangan.

Maqsad: Ilmiy xodimlarni chet ellik xamkasblari bilan ilmiy-kasbiy muloqotlarni amalga oshirishga mo'ljallangan. Bu metod talabalarni o'qitishning yakuniy bosqichida qo'llanilishi mumkin. O'tilgan mavzularni qaytarish sifatida.

5. Suggestokibernetik integral metod. (Petrusinskiy V.V.) (katta yoshlilar uchun)

Suggestiv boshqarishni "kibernetizatsiyalash" bu metodni asosini tashkil qiladi. O'qitish avtomatlashgan texnik vositalar orqali olib boriladi. O'qituvchi ishtirok etmaydi. U faqat material tanlash va bilim, malaka va ko'nikmalarni nazorat qiladi xolos. Bu metod asosan boshlang'ich metodni avtamatlashtirishga yordam beradi va leksik materialni xotirada saqlab qolishni tanlaydi.

Xilosa qilib aytganda u yoki bu intensive kursni ba'zi bir xususiyatini chet til oily ta'lim sistemasida oily o'quv yurtlarida o'qitish jarayonida qo'llash mumkin. U shaxsni o'quv jarayonida xar tomonlama faolligini oshirishga mo'ljallangan.

"Metod" tushunchasiga doir ta'limshunoslik o'qitishni umumiy nazariyasi sifatida ushbu atama keng qo'llaniladigan fandır. Didaktlar "Metod" atamasini bilish, malaka, ko'nikmani egallash, o'qituvchilarda dunyoqarashini shakllantirish va bilish imkoniyatlarini yaratish yo'lidagi muallim va talabaning ish usuli ma'nosida izohlaydilar. Fan asoslarini o'rgatadigani o'quv predmetlari uchun mo'ljallangan ta'limning umumiy metodlari ishlab chiqilgan. O'quv predmetining hususiyatlari hisobga olinib, metodikada chet tili o'qitish metodlari yaratilgan. Chet tili o'qitishda metodlarni tadbiiq etish uzoq

davrlardan boshlangan. Chet tili o'qitish metodikasida "Metod" atamasi asosan 3 ma'noni bildiradi.

Birinchi, metodika tarixidagi butun bir yo'nalish (tarjima metodi, to'g'ri metod, qiyosiy metod, aralash metod);

Ikkinchi, yuqoridagi yo'nalish tarkibiga kiruvchi o'qitish sistemasi; Uchinchi, muallim va o'quvchilarning o'zaro bog'langan faoliyati usuli. (Tanishish, mashq qilish va qo'llash metodlari). Chet til o'qitish tarixida birinchi va ikkinchi metodlar "tarixiy" metodlar nomi bilan, uchinchi "jarayonni ifodalash" metodlari atamasi bilan yuritiladi. Tarixan metodlar to'rt guruhga birlashtirilib, ularning nomlariga "tarjima", "to'g'ri (yoki tarjimasiz)", "qiyosiy", "aralash" so'zlarini aniqlovchi sifatida qo'shib aytiladi, shunday qilib, chet til o'qitishning bir necha asrlik tarixidagi barcha metodlar to'rt toifaga to'plangan. Ularning har birini qisqacha tahlil qilish talab etiladi, chunki birinchi metodikada ularning ayrim hususiyatlari muayyan shaklda qo'llanilmoqda.

## **TARJIMA METODI.**

Ushbu metodning nomi odatda "Tarjima metodlari" atamasi bilan ko'plikda ishlatiladi. Shunga ko'ra ma'noni bilib olish qiyin emas; chet til materiali ona tiliga tarjima qilinadi. Ovroqada, avval yunon tili, keyinchalik lotin tili o'rgatilganda tarjima tushunish usuli qilib olingan. XVIII asrning ikkinchi yarmida va XIX asr davomida frantsuz tili, XX asrda esa ingliz tili va nihoyat nemis tili tarjima orqali o'rganilindi, musulmon dunyosida esa asosan arab tili, qisman fors tili chet tillar sifatida o'rganib kelindi. O'lik va jonli tillarni tarjima metodi bilan o'rgatilib, bu jarayon mantiqiy tafakkurni rivojlantirish omili hisoblab kelindi. Arab tili esa islom dini asarlarini o'rgatish vositasi bo'lib, uni ko'pchilik talabalar quruq yodlash orqali o'rganishar edi. Oliy, diniy o'quv yurtlarida arab, fors, turkiy tillar atroflicha o'rganilgan.

Tarjima metodlari orasida eng ko'p tarqalganlari "Grammatika-tarjima metodi" va "Matn tarjima metodi" nomlari bilan mashxur bo'lgan. birinchisining namoyondalari so'z va rang tarjimasini grammatika qoidalarini o'rgatish uchun tatbiq etganlar, ikkinchisining tarafdorlari esa matnni o'qish va uning mazmunini tushunishda tarjimadan foydalanishni maqsad qilib qo'yg'an. Har ikkala tarjima metodini qo'llashdan faqat ta'limiy maqsad ko'zlangan. Chet til retseptiv tarzda o'rganilgan. O'z davrining tilshunoslik va ruxshunoslik ma'lumotlariga asoslanib, chet til o'qitish metodlari ishlab chiqilgan.

Ayrim muallimlar hozirgacha tarjima metodlari usullaridan noo'rin foydalanishmoqda. Masalan: matnni og'zaki tarjima qilish g'ayri metodik usuldir. Matnning ayrim jummalari yoki bir-ikki bo'lagini muayyan maqsadda tarjima qilish man etilmaydi. Lug'atdan foydalanib, yangi so'zlarning ma'nolarini ochish maqsadida tarjima qilishga mo'ljallangan kichik matnlar berilishi mumkin, Bu erda matnni tarjima qilishdan ko'zlanadigan muddao lug'atdan foydalanishni o'rgatish.

## **TO'G'RI METOD.**

Metod nomining kelib chiqishiga asosiy sabab shuki, to'g'ri metodda o'qitish chog'ida ona tilini chetlab o'tib chet til so'zi bilan predmet orasida bevosita assotsiatsiya, ya'ni fikran bog'lanish o'rnatishga urinib ko'rilgan. Chet til grammatikasini o'rgatishda

ham huddi shunday metodik yo'l tutilgan; grammatik ma'no bilan shakl o'rtasida bevosita bog'lanish hosil qilmoqchi bo'lishgan.

To'g'ri metodning dunyoga kelish sababini chet tillarni amaliy o'rganish maqsadidan qidirish joizdir. O'tgan asrning oxirlariga kelib, Garbiy Evropa mamlakatlari va Amerika Qo'shma Shtatlarida chet til o'qitishni isloh qilish natijasida ushbu metod kashf etilgan. Keyinchalik bu metod -Osiyo, Afrika va boshqa yurtlarga ham tarqalgan.

Ona tili ishtirokisiz chet tilini o'rgatishga intilishlarni to'g'ri metod, induktiv metod, tabiiy metod kabi atamalar bilan yuritila boshlangan. Ushbu metodlardan ko'zlanadigan asosiy maqsad chet tilni amaliy jihatdan o'rgatishdir. Ona tilini o'rganish shart-sharoitlari bu metodda o'zgarishsiz qabul qilina bergan.

To'g'ri metodning zamonaviy ko'rinishlaridan ikkitasi - audiolingual va audiovizual metodlari ko'p tarqalgan. Audiolingual metodning asoschilari (mashxur Amerika metodistlari Chariz Karpenter Friz va Robert Lado) fikrlariga binoan chet til amaliy va ta'limiy maqsadda o'rganiladi. Til materiallaridan chet til jumalari (nutq namunalari)ni tanlash va o'rgatishga muhim o'rin beriladi. Nutq faoliyati turlarini o'rganish tartibi quyidagicha kechadi: tinglab tushunish, gapirish, - o'qish - yozuv. Og'zaki nutq chet tilda aloqa vositasi sifatida, yozma nutq esa og'zaki nutq materiali asosida o'rgatiladi.

Muallimlar audiolingual metodning bir qancha ijobiy xossalarini maktab tajribasidan biladilar. Chunonchi, nutq namunalarning til o'rgatish birligi darajasiga qo'lanilishi, og'zaki nutqning ilgarilashi, og'zaki nutqning materialida o'qish va yozuvning o'rgatilishi V-VII sinflarda tegishli o'zgarishlar bilan qabul qilingan.

Audiolingual metodning ayrim qonuniyatlari bizning sharoitga to'g'ri kelmasligi maktab darsliklariga hisobga olingan. Masalan: nutq namunalari ong ishtirokisiz va hech qanday qoidalar berilmasdan o'rgatish undagi g'ayri ilmiy ko'rsatmalardir. Aktiv va passiv til materialini farqlagan holda ularning o'zlashtirishiga, befarq qarashadi. Bu ham noto'g'ri metodik yo'l-yo'riqdir.

Audiolingual metoddan qator jihatlari bilan farq qiladigan audiovizual metod nomoyondalari (P.Guberina, P.Rivan) metodik ko'rsatmalariga binoan leksik materialni an'analarga alohida e'tibor berilgan. Xayotiy mavzularda erkin fikr yuritish uchun 1500 so'z tanlangan, turli texnikaviy vositalarga ta'lim jarayonida katta o'rin beriladi.

Ikkala metodning umumiyligidan tashqari tafovutlari ham bor. Masalan, audiovizual metodda og'zaki nutq, yozuv va oxirgi navbatda o'qish o'rgatiladi. O'qish yozuvdan keyin o'rgatiladi, Bizning maktablarda ushbu metodlaridan ijobiy foydalaniladi. O'rta maktabda birinchi yillari chet tili o'qitishda yozuv o'qishdan oldin, keyinchalik esa o'qish yozuvdan oldin va yuqori sinflarda o'qish barcha nutq faoliyati turlaridan oldin o'rgatiladi. To'g'ri metodlarning reprodaktiv va retseptiv tarzda chet til o'rgatish metodlari ham metodika tarixida sezilarli iz qoldirgan.

## **ARALASH METOD**

Ushbu metod ikki katta metodik yo'nalishlarning ilmiy-amaliy tomonlarini o'ziga singdirib olgan, Aralash metodlar XIX asr oxiri XX asr boshlarida tarjima va to'g'ri metodlar qorishmasi sifatida vujudga keldi. Aralash metod haqida uning nomoyondalari Daniyalik ruxshunos K.Flagstad, nemis tilshunosi E.Otto, nemis metodisti F.Aronshteyn, nemis tilshunosi G.Paul kabilarning ilmiy ishlaridan ma'lumotlar olish mumkin. Aralash metodning yana bir boshqacha ko'rinishi to'g'ri metod va qiyosiy metod printsiplarining qorishmasi sifatida vujudga keldi. Ushbu zamonaviy aralash metodning nomoyondalari

metodistlar Amerikalik II Xenbold, Belgiyalik F.Klossa, Germaniyalik A.Bolen va rus chet til o'qitish ruhshunosi R.B.Beliyev tadqiqotlaridan ma'lum va mashxurdir.

## QIYOSIY METOD.

Uning to'liq nomi "Ongli qiyosiy metod" deyiladi. Bu metodning asoschisi A.V.Sherba bo'lib bu metodni hozirgi davr chet til o'qitish jarayoniga moslashtirgan. Metod asoschisi ishini samarali davom ettirgan pedagogika fanlari akademiyasi muxbir a'zosi, professor I.B.Raxmonov bo'lgan. Ushbu metodni qiyoslash, ona tiliga suyanib ish ko'rish nutq faoliyatlarini bir yo'la o'rgatish singari hususiy printsiplari 40-50 yillarda shakllanadi va keng ko'lamda amaliy qo'llanadi. Chet til o'qitishning amaliy, ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlari ilmiy asoslab berilgan bu metodning birinchi ko'rinishi edi.

60-yillardan hozirgacha bo'lgan vaqt ichida ongli-qiyosiy metod zamonaviylashtirildi. Jumladan, qiyoslash o'quvchilarning dars paytidagi yumush tarzida emas, balki mashqlar sistemasini tuzishda metodist va muallim vakolatiga kiradigan ishdir.

Ongli-qiyosiy metodning birinchi ko'rinishida qoida asosida mashq bajariladi. Zamonaviy ko'rinishda mashq jarayonida amaliy ruxdagi qoida umumlashtiriladi. O'quvchi qiyoslash, qoidani yodlash va aytib berish, nazariy bilimlar yig'ish bilan maxsus shug'ullanmaydi.

Metod atamasini ifodalashning yana bir turi chet til o'qitish jarayonida amaliy foydalaniladigan metodlardir. Ular uchta:

- 1) tanishish
- 2) mashq qilish
- 3) qo'llash

Ushbu uch atamani metodik tadqiqotlarda turli nomlar bilan yuritib kelindi. Ko'pchilik tan olgan va o'qitishda bevosita mushoxada qilish mumkin bo'lgan mazkur metodlar o'quvchi nuqtai nazaridan nomlangan. O'quvchining chet tili o'rganishdagi vazifasi o'quv materialini bilan tanishish, ko'nikma va malaka hosil qilish maqsadida mashq qilish hamda o'z fikrini bayon etish chog'ida, ya'ni nutqiy muloqotda tildan foydalanishdan iborat. Har bir metodning o'ziga xos hususiyatlari bor.

Tanishish o'quv materialini o'rganishdagi birinchi qoidadir. Til birligini o'rganishga kirishilar ekan, o'quvchi uning shaklini (tovush tomonini og'zaki nutqda aniq ravshan ko'rsatish yoki grafik tili sonini yozma matndan ko'rib o'qiy olish), ma'noni (predmet xodisa harakat bilan fikran bog'lash) va qo'llanilishi (boshqa birliklar bilan qo'shilishi, qanday holatda ishlatilishi) bilan tanishadi. Shakl, ma'no va qo'llanish har bir leksik yoki grammatik birlikda o'rganiladigan uch tomondir. Ular bilan tanishish o'quv birligini o'zlashtirishning boshlanishi demakdir. Ushbu birlik xotirada saqlanishning asosiy shartlaridan biri uni eshitish va ko'rish sezgilari yordamida idrok qilishdir. Shu paytda til birligi mashq qilish bosqichidan o'tadi.

Mashq qilish yo'li bilan o'rganilayotgan til hodisalari mustaxkamlanadi, ularga oid dinamik stereotip shakllanadi. Ushbu dinamik stereotip nutq jarayonida operatsiya maqomida ishga tushadi. Mashq qilishda mashqlar miqdori va sifatiga, ya'ni nechta va qanday mashq bajarish masalasiga alohida e'tibor beriladi.

Mashq qilish chog'ida o'quvchi o'zlashtirayotgan ko'nikma muallim nazorati ostida bo'ladi, Nazorat qilishning eng tejalish usuli test o'tkazishdir.



Qo'llash davrida axborot almashish (ya'ni malaka hosil qilish) mashqlari bajariladi. O'quvchilarning ogzaki va yozma fikr almashishlari jarayonida qo'llash metodi qo'l kelada. Oldin o'rganilgan material endi axborot yetkazishlar olish maqsadiga bo'ysundiriladi.

Metodlar faoliyat ko'rsatkichi, o'z navbatida metodik harakatlar orqali amaliyotda ishlatiladi. Masalan: leksikaning ma'nosini tarjimasiz ochish usuli, matndan axborot olish usuli, grammatik birlikni leksik o'rgatish usuli, talaffuzni taqlid yo'li bilan o'rgatish va hokazo. Aniq usullar majmuasi jarayon metodini tashkil etadi. Metodik usul o'quv materialini o'rganishda yaqqol ko'rinib turadigan harakatni bildiradi.

Metodik adabiyotlarda metodlarni "Namoyish etish, tushuntirish va mashq" nomlari bilan berish yoki metodlar yettitagacha hollari uchraydi, Qanday nomlar yoki ular nechta bo'lishdan qat'iy nazar metodlar tanishtirish, ko'nikma hosil qilish va malaka berishga yo'naltirilgan.

## **PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA**

Pedagogik texnologiya - ta'lim berish va o'zlashtirish usullarini yaratish, qo'llash, ularni yagona tizimga keltirish yo'li bilan inson salohiyati va texnik vositalarning barcha imkoniyatlaridan muvofiq foydalanib, bilimlar o'zlashtirishning eng maqbul jarayondir.

### **MA'RUZA**

#### **MAVZU: CHET TIL O'QITISHNING BOSHLANG'ICH BOSQICHI.**

#### **REJA**

1. Nutqni hosil bo'lishi hususidagi kontsepsiyalarning qisqacha sharxi.
2. Boshlang'ich bosqichning o'ziga xos hususiyatlari.
3. Boshlang'ich bosqichda og'zaki nutqqa o'qitish:
  - a) monologik nutq
  - b) dialogik nutq

#### **ADABIYOTLAR.**

1. А. А. Миролубов « Вопросы обучения русскому языку иностранцев на начальном этапе». Москва 1976.
2. Г.М.Уайзер « Развитие устной речи на английском языке» Москва 1963.
3. С. Фоломкина «Учебник английского языка для 5 классов». Москва 1968.
4. А. А. Леонтьев «Технологические единицы и порождение речевого высказывания» 1969.
5. Д. Миллер "Теория речевой деятельности". Москва 1968.
6. А. А. Леонтьев "Психолингвистика". Ленинград 1967.

## SAVOLLAR

1. Inson nutqini shakllanishi hususidagi qanday kontsepsiyalarni bilasiz?
2. Chet til o'qitishda bosqichlar muammosi haqida qanday fikrdasiz?
3. Boshlang'ich bosqichda nutqning qaysi turiga ko'proq e'tibor beriladi?
4. Til mashqlari bilan nutq mashqlari qanday farqlanadi?
5. Monologik nutq qanday nutq? Uning qanday ko'rinishlarini bilasiz?
6. Dialogik nutqning psixologik hususiyatlarini izohlab bering?
7. Dialogik birliklarni sanab bering?

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ingliz tilidagi og'zaki nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish va o'stirish hususida so'z yuritilganda, eng avvalo nutq faoliyati, inson nutqining hosil bo'lishi va o'quvchilarda nutqni shakllanish masalalariga bir oz to'htalib o'tish maqsadga muvofiqdir. Tilning eng asosiy vazifasi kishilar o'rtasida muloqot qilish vositasi bo'lishidadir. Inson butun xayoti davomida nutqini o'stirib boradi. Psixologik va metodik adabiyotlarda inson nutqining shakllanishi va rivojlanishi hususida bir qator kontsepsiyalar va ko'plab ilmiy maqolalar mavjud. Bu masala, ayniqsa, П.Я. Гальперин, Жинкин Н.И., Леонтьев А.А., Зимняя И.А va boshqa taniqli olimlarning asarlarida keng yoritilgan.

Bularning ichidan А.А. Леонтьев va И.А. Зимняя asarlarini ko'rsatib o'tish o'rinlidir. Chunki ularning asarlarida nutq hosil bo'lish bosqichlari ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinishi bilan birga ular chet tili o'qitish metodikasi bilan bog'lab berilgan va chet tili o'qitish uslubi uchun asos bo'lib hizmat qiladi.

(Ushbu kontsepsiyalar izohlab beriladi).

Nutq hosil bo'lish bosqichlari va nutq faoliyati turlarining tahlili ushbu kurs ishining vazifasiga kirmaganligi uchun ham biz ko'proq kichik yoshdagi bolalarda nutq hosil bo'lishi va ular nutqiga qo'yilgan talablarni ko'proq yoritishni ma'qul topdik.

Insonda bolalik chog'idanoq nutq so'zlashga, ya'ni idrok etishga extiyoj seziladi. O'z fikrini ifodalash extiyoji bola o'sib borishi bilan kengayib boradi va u tobora ko'proq, murakkabroq til birikmalarini o'z nutqida qo'llay boshlaydi. Demak bolaning tilni bilishi nutqiy faoliyat asosida kechadi. Shuning uchun ham kichik yoshdagi bolalarda xorijiy tildagi nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish va o'stirish ham nutqiy asosda ko'rilmog'i kerak. U albatta, ona tilini egallash va chet tilini egallash o'rtasida anchagina o'ziga xoslik va farqli tomonlari bor. Masalan, xorijiy tilni o'rganishni boshlagan kichik yoshdagi o'quvchilarda ona tili mexanizmi shakllangan bo'ladi va ular ona tilida o'z fikrini yorqin ifodalay oladilar. Shuning uchun ham maktabda ona tili nutqiy ko'nikmalarini kergaytirib, o'stirib borishga ko'proq e'tibor beriladi. Chet tilini o'qitishda esa avvalam bor nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish asosida nutqiy mexanizmini ham shakllantirish (bu erda so'z chet tili nutqiy mexanizmini shakllantirish haqida ketayapti) va nutqiy ko'nikmalarini o'stirish yuzasidan ya'ni shunga yo'naltirilgan ish olib borish talab etiladi. Biroq ikki til uchun ham xos bo'lgan narsa muloqot uchun ehtiyoj zarurligidir. Ma'lumki nutqiy muloqot ayrim belgilar, so'zlar, so'z birikmalari va nutqiy konstruktsiyalar asosida amalga oshiriladi, bular esa turli tillarda turlichadir. Shuning uchun ham nutqning rivojlantirishida til muhitining roli juda kattadir. Bolalar nutqiy muloqot jarayonida og'zaki nutqni egallash bilan bir qatorda bilim saviyasini ham kengaytirib boradilar. Boshqacha qilib aytganda ularning dunyo qarashi nutqiy muloqot jarayonida o'sib boradi. Bu esa o'quvchilarda nutqiy ko'nikmalarni o'stirishda yuqorida ta'kidlangandek ehtiyoj va til muhitining zarurligi bilan bir qatorda ulardagi dunyo qarashni o'stirishni taqozo etuvchi aniq til

materiali bo'lishi kerakligini ham ko'rsatadi. Demak, chet tilidagi og'zaki nutqni o'stirishda ham o'quvchilarning yosh hususiyatlari, qiziqishlari, dunyo qarashlarini kengaytirish zaruriyati va ular tarbiyasiga qo'yilgan talablardan kelib chiqqan holda til birliklarini va tematikani tanlash kerak bo'ladi. O'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishdagi yana bir muhim omil - bu nutqiy ko'nikmalar hosil qilishdir. Ma'lumki, nutqiy ko'nikmalar nutqiy harakatni ko'p marta takrorlash natijasida hosil qilinadi. Buning uchun esa ma'lum nutqiy muhit yaratish va o'rganilayotgan so'z va iboralarni gaplar yordamida ko'p marotaba takrorlash lozim.

Nutqiy faoliyat juda ham keng qirrali faoliyatdir. Uning shakllanishi va o'sishida uch narsaga e'tibor bermoq kerak:

1. So'zlar ustida ishlash;
2. So'z birikmalari yoki iboralar ustida ishlash;
3. Bog'liq nutq ustida ishlash.

Metodik adabiyotlarda o'rta maktabda chet tili o'qitish uch bosqichga bo'linishi ko'rsatilgan.

Bu 5-10 sinflarni o'z ichiga olgan uch bosqichdan iboratdir. Lekin so'ngi yillarda maktab o'qitish tizimida o'qitish o'n bir yillikka aylantirilganligi va chet tillarni o'rganish ikkinchi va uchinchi sinflardan, xatto bog'chadan ham boshlanayotganligi avvaldan mavjud bo'lgan o'quv bosqichlariga o'zgartirish zarurligini ko'rsatmoqda, chunki 2-3-4 sinf o'quvchilari bilan 5-6 sinf o'quvchilarining dunyo qarashi, psixofiziologik hususiyatlari o'rtasida anchagina farq mavjud. Bu esa shu aytilganlarni hisobga olgan holda darsni tashkil qilish kerakligini ko'rsatadi. Umuman olganda har bir bosqichning o'ziga xos va ularni boshqa bosqichlardan farqli tomonlari o'quv materialini tanlashda va darsni tashkil qilishda hisobga olinmog'i kerak. Shu boisdan olib qaraganda hozirda metodik adabiyotlarda mavjud bo'lgan, ya'ni berilgan o'rta maktabda chet tili o'qitishning uch bosqichiga 1-2-3-4 sinflarni ichiga olgan bosqich qo'shiladi va o'rta maktabda o'qitishni to'rt bosqichdan iborat deb talqin qilish mumkin. Ammo bu psixologik va pedagogik nuqtai nazardan yaxshilab o'rganishni va eksperimental yo'l bilan sinab ko'rishni taqazo etadigan murakkab ish hisoblanadi.

Shuning uchun ham ushbu qarashni hozircha gipoteza holida qoldirib, hozirda metodik adabiyotlarda berilgan uch bosqichdan kelib chiqqan holda shu bosqichning boshlang'ich (5-6 sinflarida) bosqichida og'zaki nutqni o'stirish masalalarini yoritishga harakat qilamiz.

## **BOSHLANG'ICH BOSQICHNING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI**

Ma'lumki, birinchi bosqichda ingliz tili o'rganishning asosi "poydevori" yaratiladi. Maktabda bu bosqichlar o'rtasidagi farq aniq ajratilmagan va shuning uchun ham o'qitish jarayonida bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tish asta-sekin bir ma'romda olib boriladi. Shuning uchun ham bosqichlar o'rtasidagi chegara shartli ravishda o'quv yilining oxiri deb olinadi. Aslini olganda ayrim bir bosqichning o'ziga xos tomonlari ikkinchi bosqichga o'tilganda ham ma'lum bir paytgacha davom etishi mumkin.

Birinchi bosqich chet tili o'rgatishning va o'qitishning boshlang'ich bosqichi bo'lganligi tufayli ham unda og'zaki nutqqa va o'qish texnikasini o'stirishga katta e'tibor beriladi. Ushbu bosqichda talaffuzga o'rgatish chet tili nutqiy mexanizmining ayrim elementi bo'lmish chet tili nutqining idrok etish va og'zaki nutqiy muloqotning eng sodda va oddiy savol-javobdan iborat nutqiy birikmalardan foydalanishga o'rgatish katta

ahamiyatga ega. Birinchi o'quv yilida ayniqsa, ingliz tili talaffuziga o'rgatishga alohida e'tibor berilmog'i kerak, chunki bu davrda talaffuz ko'nikmalari shakllantiriladi va keyingi bosqichlarida esa u kengaytirilib, rivojlantirib boriladi. Agar o'quvchilarda boshlang'ich bosqichda ingliz tili tovushlarining aniq talaffuziga, artikulyatsiyasiga erishilsa, keyingi bosqichlarda ushbu masalasini xal etish ancha mushkul bo'ladi.

Nutq tovushlarining korrektsiyasi maxsus mashqlarni va ish usulini talab qilganligi uchun ham bu ishga yuqori bosqichda quyi bosqichdagiga nisbatan ko'proq vaqt sarf qilishga to'g'ri keladi.

1. Birinchi bosqichdagi eng asosiy vazifa tanlab olingan leksik materialni ma'lum grammatik strukturalar asosida nutqda qo'llashni o'rganishdir. Bu esa nutq hosil qilish mexanizmining shakllanishiga yordam beradi. Ushbu o'rganilayotgan grammatik strukturalarni yuqori darajadagi avtomatlashuviga erishmoq talab etiladi. Birinchi yili chet tili o'rgatishning o'ziga xos tomoni bo'lmish leksik va grammatik jihatdan chegaralanganligi o'quv jarayonini ma'lum tematik asosida tashkil qilishga to'sqinlik qiladi. Shunday qilib boshlang'ich bosqichda o'qitishning keyingi bosqichlarida o'rganilishi kerak bo'lgan tematika asosida tashkil qilish uchun sharoit yaratib beradi.
2. Agar boshlang'ich bosqichda chet tili o'qitishni nutq faoliyati turlari bo'yicha ko'rib chiqadigan bo'lsak, ularni o'rgatishda quyidagi vazifalarni bajarish zarur:
  - a) o'qish mexanizmini hosil qilish;
  - b) og'zaki o'qish texnikasini o'stirish;
  - c) o'qiganini tushinishga o'rgatish.

3. Bu jarayonni o'ziga xosligi shundaki, bu ish avval to'la o'rganilgan - leksik-grammatik, grammatik material asosida tekstlarni ovoz chiqarib o'qish orqali amalga oshiradi.
4. Boshlang'ich bosqichga yozma nutqni o'stirish ingliz tili xusni-xati og'zaki nutqda o'zlashtirilgan so'zlarni yozishni o'rganish bilan xarakterlanadi. Chet tili o'qitishning og'zaki ilgarilab ketish tamoyiliga (printsipiga) ko'ra til materialini o'rganish og'zaki nutqda va o'qishda bir vaqtda olib borilmaydi. Bu bosqichda til materialini o'rganish quyidagi sxema asosida olib boriladi:

tinglab tushunish – gapirish – o'qish - yozish

Bundan ko'rinib turibdiki boshlang'ich bosqichda nutq faoliyati turining og'zaki nutqiy harakterga ega turlariga ko'proq e'tibor beriladi. Chet tili o'qitishning boshlang'ich bosqichda "og'zaki kirish qism" degan atama tez-tez uchrab turadi. Metodik adabiyotlarda (masalan Palmer asarlarida va Dekson seriyasi asosida chiqarilgan darsliklarda) bu qism, ya'ni og'zaki ilgarilab ketilgan 1 – 1.5 ajratilgan. Ayrim metodistlar esa bu davr 2 - 3 soatni o'z ichiga olsa kifoya, qolgan davrlar o'qitish jarayoni kompleks holda olib borilishi ma'qul deb aytiladi. Og'zaki ilgarilab ketish davrida ish og'zaki asosga ko'rilgani uchun ham uni ko'proq yoritib o'tilgani maqsadga muvofiqdir, bu davrdagi ish, asosan quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarda to'g'ri inglizcha talaffuz ko'nikmalarini o'stirib va o'rganilayotgan til material yani o'z ichiga olgan grammatik strukturalarni intonatsion jihatdan to'g'ri tuzlanishiga erishish.
2. Grammatik strukturalarni tinglab tushunish va gapirish jarayonida o'rganib, ularni boshlang'ich bosqichda o'rganish uchun tanlab olingan leksik material bilan

to'ldirish hamda savol-javob harakteriga ega bo'lgan mashqlar yordamida to'g'ri talaffuz qilishga va og'zaki nutqda qo'llashga o'rgatish.

3. Leksik birliklardan grammatik strukturalarni o'rganishda uning ayrim qismlarining o'rnini almashtirib turli gaplar tuzish va o'zni almashtiruvchi mashqlar yordamida nutq faoliyatining boshqa turlarini o'rganish uchun zamin tayyorlovchi vosita sifatida foydalanis

4. Ingliz tili alfavitidagi kirish kursiga ingliz tili xarflarini, xarf birliklarini yozilishi va o'qilishini o'rganish. Garchi og'zaki nutq kirish kursiga ingliz tili xarflarini, xarf birikmalarini va ayrim so'z va gaplarni yozish kiritilsa ham bu

og'zaki ilgari ketishi tamoyiliga zid bo'lmaydi, chunki bu davrda o'quvchilarda qilinadigan yozuv va o'qish ko'nikmalari nutq faoliyatining shu turlarini egallash uchun tayyorgarlik vazifasini bajaradi xolos.

Boshlang'ich bosqichda o'qishning asosan ovoz chiqarib o'qish turiga keng o'rin ajratilgan. O'qish uchun ajratilgan tekstlar ham eng sodda va oddiydan asta-sekin murakkablashib bordi. Lekin shuni aytish kerakki, boshlang'ich bosqichlardagi ish faoliyati asosan og'zaki nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishiga qaramay ingliz tilida og'zaki nutqiy o'stirish masalasini xal qila olmaydi. U haqiqiy og'zaki nutq ustida ishlash uchun faqat tayyorgarlik bosqichini o'taydi.

Ushbu bosqichda og'zaki nutq ustida ishlashning asosiy og'irligi o'quvchilarning alohida gaplar emas, balki bog'liq gaplar ham tuzishlariga imkon beruvchi ma'lum leksik birliklarni egallab olgan davriga to'g'ri keladi.

Bundan tashqari o'quvchilar boshlang'ich bosqichda The Present in definite Tense., The Past in definite Tense. , The Future Tense in definite Tense kabi fe'l zamonlarini yaxshi bilishlari va fe'l shakllaridan ushbu zamonlarda yorqin foydalana oladigan bo'lishlari talab etiladi. O'quvchilar otlarni birlikda va ko'plikda ishlatilishini, hozirgina noaniq zamonda kelgan fe'lning III shaxs birlikdagi shakliga "s" yoki "es" qo'shimchalarini qo'shilishini, gaplarning so'roq, inkor va buyruq shakllarini ham boshlang'ich bosqichda o'qish davrida egallaydilar. Agar o'quvchilar oddiy savollarga javob bera olmasalar va ular faqat bir xil grammatik konstruktsiya yordamidagina gaplar tuzsalar biz ularning bu nutqini haqiqiy ingliz tili nutqi deb qabul qilmasligimiz kerak. Bundan tashqari oddiy so'roqlarga javob berish ham ingliz tilida nutqni egallash degan narsani bildirmaydi. Shunda harakterdagi mashqlarni ham og'zaki nutqni o'stiruvchi mashqlarni ham shu bosqichda chet tilini o'rganayotgan faoliyatiga va o'quvchilar tomonidan ingliz tilini o'rganishda quyidagi vazifa va asosiy diqqat e'tiborni qaratmoq lozim.

Ingliz tili talaffuzi ustida ishlash va uni o'ztirish o'quvchilar nutqini tovush va intonatsion tuzilishni o'z ichiga oladi. Bu davrda o'quvchilarning ingliz tilidagi talaffuziga bo'lgan diqqat e'tibor sira ham susaymasligi kerak.

Ko'pincha o'qishga og'zaki nutqda shakllantirilgan tovushlar artikulyatsiyasining buzilish xollari uchraydi. Bunga yo'l qo'ymaslik va kerak bo'lganda qo'shimcha og'zaki mashqlar bajarish lozim.

Yangi so'zlarni o'rganish avval o'zlashtirilgan grafik konstrugadayalar asosiy olib boriladi. Bu esa ushbu bosqich uchun tanlab olingan material asosida nutqiy mexanizmini shakllatirgan tomonidan eng oddiy muloqotni o'lyab borishga imkon yaratadi va kelgusida ingliz tilidagi nutqni tinglab tushunishga va ingliz tilida gapirishga imkon beradi. O'qiganini tushunib olish va texnikasini o'zlashtirish.

O'qish texnikasini o'stirish avval og'zaki nutqda o'rganilgan so'zlar asosida olib boriladi. O'quvchilarning og'zaki nutqida o'zlashtirilgan so'zlarning o'rfografiyasini

o'rganishni yozma mashqlar asosida olib borish va o'rganilgan leksik va grammatik materialni yozuv orqali mustahkamlash. Boshlang'ich bosqichda tinglab, tinglab-tushunish va gapirishga o'rgatish grammatik strukturalarini nutqda qo'llashni mashq qilish jarayonida olib boriladi.

Og'zaki nutqqa o'rinish. Og'zaki nutqiy muloqotga o'rgatish, tinglab tushunish va gapirish orqali amalga oshiriladi. Bu erda gapiruvchi axborot berish jarayonida nutqiy muloqotni amalga oshirsa, tinglovchi esa uni tinglash va tushunib olish orqali nutqiy muloqotni amalga oshiradi. Suhbat davomida gapiruvchi bilan tinglovchining rollari (o'rin) almashib turadi, ya'ni ular navbat bilan goh tinglab, goh gapirishlari mumkin. Og'zaki nutqiy muloqot bir tomonga yo'naltirilgan bo'lishi ham mumkin. Bunda birinchi shaxs faqat gapiradi, ikkinchisi esa tinglaydi. Bunday holatdagi nutqni bir tomonlama yo'naltirilgan nutq, ya'ni "Monologik" nutq deb ataymiz.

Gapiruvchi va tinglovchining o'zni almashib turgandagi nutq shakli "Dialogik" nutq deb ataladi. Monologik nutq ayrim bir kishi berayotgan malumot monolog deyiladi. U ma'ruza usulida, radio orqali berish mumkin. Monologik nutqning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, quyidagilardan iborat Monologik nutqgacha fanga yo'naltiridgan bo'ladi.

Monologik nutqqa, qancha ko'p aytilsa, shuncha ko'p oz ko'zlanadi/

Monologik nutq lingvistik grammatik strukturada bo'ladi. Monologik nutqda talaffuzga katta e'tibor beriladi.

Monologik nutqning quyidagi turlari mavjud:

- a) Hikoya
- b) Ta'riflash
- c) Tasvirlash
- d) Muhokama
- e) Ma'ruza

Ayrim metodist olimlar Retell ham monologik nutqni bir turi, deb hisoblashadi. Chunki nutqda bir kishi qatnashadi. Lekin boshqa guruh olimlari Retell monologik nutq emas, chunki o'z fikrini ifodalash ko'nikmasi mavjud emas, deb hisoblanadi. Monologik nutq tayyorlangan yoki tayyorlanmagan holda uchraydi. Biz boshlang'ich bosqichga tayyorlangan monologik nutqdan foydalanamiz. Tayyorlanmagan monologik nutq yuqori sinflar uchun mo'ljallangan bo'lib, quyidagi turlari mavjud:

1. Mavzuni o'ylab toping va izohlang.
2. Rasmlarni tasvirlash.
3. Avval o'zlashtirilgan axborotga muvofiq situatsiya tuzish.
4. Farqlarni izohlash.
5. Qisqacha e'lon qilish.
6. Dialogik nutq

Dialogik nutq og'zaki nutqning bir turi bo'lib, ikki yoki undan ortiq shaxslarning suhbatida ko'riladi. Metodist shu fan chet tili o'qitishni boshlaganda dastlab dialogik nutq ko'nikma va malakalarni hosil qilish kerak deydi.

Dialogik nutqni o'stirishimizdan oldin nutqiy vaziyat hosil qilishimiz kerak, Nutqiy vaziyat ikki xil bo'ladi:

## 1. Tabiiy

## 2. Ta'limiy

Dialogik nutqning psixologik hususiyatlari:

1. Birdan ortiq kishi ishtirok etadi.
2. Hamma vaqt suhbatdoshining savoliga tayyor turish talab etidadi.
3. Ma'lum shaxsga qaratilgan bo'ladi.
4. Nutqiy vaziyat katta rol o'ynaydi.
5. Dialogik nutq emotsionalikgi bilan ajralib turadi.
6. Dialogik nutq ma'lum motivatsiya, tashabbuskorlik talab etadi.

Dialogik nutqning lingivistik hususiyatlari:

1. Savol javob birligi.
2. Turli xil luqmalarning mavjudligi.
3. Ekstralingvistik fagegorla? ! mavjudligi.
4. Qisqa va to'liqsiz gaplar mavjudligi.
5. Standart yoki tipologik so'zlarni ko'p ishlatilishi.

Keng tarqalgan dialogik birliklar quyidagilar:

1. Xabar berish, xabar to'ldirish.
2. Xabar berish, o'z fikrini ifodalash.
3. Xabar beri ,qayta so'rash.
4. Xabar berish.
5. Savol berish- jazob berish.
6. Savol berishqarshi savol berish.
7. Buyruq berish - ma'qullash.
8. Iltimos - xabar berish.
9. Buyruq berish – o'z fikrini ifodalash.

## **MA'RUZA**

### **MAVZU: CHET TILIGA OQITSHNING O'RTANCHA BOSQICHLARI.**

#### **REJA**

1. O'rtanchi etapning harakteristikasi, (ya'ni o'ziga xos hususiyatlari.
2. O'rtanchi etapda o'quv jarayonini tashkil etish.
3. Darsga qo'yilgan asosiy talablar.
4. O'quvchilarning mustaqil ishlashni tashkil etish shakllari.

## **ADABIYOTLAR**

1. Jalolov J. Ingliz tili o'qitish metodikasi. Toshkent, "O'qituvchi"
2. Рогова Г.В. Методика обучения английскому языку на начальном этапе в средней школе. Просвещение 1988

3. Шатилов С.Ф. Методика овучения немецкому языку в средней школе. Просвещение 1977

Ma'lumki o'rtanchi etapga VI - VII sinflar kiradi. Bu etap-ning muhim ob'ektiv faktorlari bo'lib, VI - VII sinflar chet tili o'qitishning maqsadi, vazifalari, til materialining xajmi hisoblanadi. Bular og'zaki nutqqa va o'quvchining iqtidorida o'quv protsessini tashkil etishni va o'z predmetini mustaqil izlash formalarini tanlashni muhim omillaridan biridir.

O'rtanchi bosqichning o'ziga xos psixologik hususiyatlaridan biri o'quvchilarni yosh xususiyatlaridir. Bu yoshdagi o'quvchilar uchun o'zini kattalardek tutishga intilish kuchli. Bular endi yosh bolalar emas, buni o'zlari ham yaxshi xis etishadi. Ular kattalar bilan bo'lgan munosabatlarida o'zlariga nisbatan kattalardek munosabatda bo'lishlarini hohlaydilar. Bu yoshdagi bolalar ko'pincha o'zlarining kuchlariga ortiqcha baho berib yuborishadi. O'zlarining faoliyatlarida, xatti-harakatlarida kattalardek tutish, ba'zi masalalarni echishda mustaqil bo'lishga intilish kuchli. Ayni huddi shu yoshdagi bolalar o'zining kasbga bo'lgan qiziqish va maktabda o'rganiladigan o'quv predmetlariga nisbatan differentsial munosabatda bo'lish shakllana boradi. Ular o'quv predmetlarini "kerakli va keraksizlarga ajrata boshlaydi. Asosan keraksiz fanlar qatoriga gumanitar fanlarni qo'shishadi. Ming afsuski, shu fanlar qatoriga ular chet tili fanini ham kiritishadi.

Nima uchun?

Bu yoshdagi bolalar bir tomondan iboratli, o'zlarini istaklarini o'ylaganlarini tezroq amalgam oshirishga intilishar, ikkinchi tomondan, ularni o'z bilimlarini oshirishga bo'lgan qiziqishlari susayadi. Psixologlarning aytishicha VI-VII sinf tafakkurining mantiqiy ketma-ketligi, tanqidiy ko'z bilan qarash, mustaqillik kabi formalari rivojlanadi. O'rtanchi etapni o'ziga xosligi chet til o'qitishning maqsadi, til o'rganishning hususiyatlari o'z til materialining harakteri (xajmi, murakkabligi) bilan belgilanadi. Til materiali asosan og'zaki nutqda o'rganiladi. Ya'ni aktiv minimum hosil qilish yo'li bilan.

Passiv minimum haqida tushincha.

Bu etapda IV sinflarda hosil qilingan ko'nikma va ma-lakalar rivojlantiriladi. yangidan individual nutq tajribasi bilan boyitiladi. O'qitishning bu bosqichida o'quvchilar nutqi mazmunli, informatsiyaga boy, grammatik va leksik nuqtai nazaridan to'g'ri hamda muloqotni amalga oshirish uchun (oshirishga undovchi) motivga ega bo'lishi kerak. Bu bosqichda o'qitishning roli va joyi o'zgaradi. O'qish amaliy maqsadning biri bo'lishi bilan birga kommunikatsiyaning mustaqil ko'rinishi, yozuv matnlaridan informatsiya olish vositasi sifatida ham muhim rol o'ynaydi. VI -VII sinfda biz yuqorida ko'rib o'tgan ba'zi bir psixologik hususiyatlar o'quvchilarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini hosil qilishga imkon beradi. Mustaqil ish shakllaridan eng muhimi bu uyda, individual yoki qo'shimcha o'qishdir. Bundan tashqari lingofon xonasida ishlash, yoki programmashtirilgan darslik bilan ishlash, o'qituvchining ba'zi bir topshiriqlarini bajarish (masalan: doklod tayyorlash, xabar tayyorlash) va x. k, shakllarida ham bo'lishi mumkin.

O'rtanchi etapda o'qitishning turli usul va priyomlarini qo'llashda ham o'zgarish bo'ladi.

Masalan: boshlang'ich etap turli xil harakatchan o'yinlar, topishmoqlar, nutqda aytilganini harakat bilan bajarishni o'z ichiga oladi. O'rta etapda asosiy e'tibor ko'proq xajmdagi matnlarni o'qib tushinishda fikrlashni, nutq faoliyatini, tashabbuskorlikni oshirishga yordam beradigan metod-usul va priyomlarni qo'llash kerak. Bu bosqichda mashqlarni avval ularni maqsadini tushitirmasdan bajarish, xor bilan taqlid qilish emas



balki mashqdan ko'zlangan maqsadni tushintirib so'ng uni bajarish lozim. O'rtanchi etapdagi o'quvchilarning o'ziga xos hususiyatlaridan yana biri ularni og'zaki nutqqa bo'lgan qiziqishlarini pasayishidir. Ularni og'zaki kommunikasiyani amalga oshirish uchun doiyim qiziqtirib turish kerak. Ularni chet tilida gaplashishga nisbatan tashabbus ko'rsatmasliklarining sabablaridan biri ularni bu sinflarda chet tilida amalga oshiriladigan og'zaki nutqni primitivligidadir. Dars soatlarida o'zgarish yo'q. Lekin til materialining xajmi va harakteridagi o'zgarishlar va farqlar mavjud.

Past Indefinite.

Present Indefinite. Present Continious & Present Perfect.

Adjective (its degrees).

Participle II- written, done, spoken, gone

Form.

a)Texts about England and English writers

b)dialogues

c) Texts for Synthetical Reading.

1. Otlarning ko'plik kategoriyasini hosil qilish.

2. Matnni: muhokama qilish uchun:b) aytib berish, tarjima;

3.Grammar:The Possesive case of nouns. Participle I,II, The Past Perfect tense. Texts abriviated from the books of English writers. (David wants to find his aunt by Oscar Wild).

O'rta bosqichda darsga qo'yilgan asosiy talablar:

O'qitishning og'zaki nutq asosida ko'rishi yoki tashkil qilishi. Bu etapni o'ziga xos hususiyatlaridan yana biri shundaki chet tili o'qitish yakunlovchi bo'lib hisoblanadi. Masalan: 8 yil maktablarda.

O'qish (Reading) ko'proq kommunikativ harakter kasb etadi. Bu bosqichda tekst informatsiya man'baigina bo'lib qo'lmasdan, balki gapirishga undovchi kommunikativ stimol xoldir.

### **Darsni kompleks tashkil qilish.**

Leksik va grammatik material nutq namunalari yordamida og'zaki nutq birlamchiligi asosida amalga oshiriladi. Lekin nutq namunalari bu bosqichda o'zlarining murakkabligi bilan ajralib turadi. U nafaqat oddiy gap namunalarinigina ishga olmasdan, balki qo'shma gap namunalarini, dialoglarni ham o'z ichiga oladi.

Materialni chuqurroq o'rganish, ularni tushunarli bo'lishi uchun ba'zi til birliklari ayrim ajraliq holda ham o'rganishga yo'l qo'yiladi. Bu bosqichda til materialini og'zaki nutq o'rganishda tematik asosda guruhlariga ajratish, o'qishda (Reading) esa bog'liq matnlar asosida o'quv protsessini tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Nutq faoliyatining ko'rinishlarini bir-biriga ijobiy ta'sir etishidan unumli foydalanish kerak. Ma'lumki V-VI sinfda tovush-xarf munosabati shakllantiriladi. O'quvchilarda ma'lum bir darajada eshitish, tushinish, audirovaniya, yozuv, ovoz chiqarib va ovoz chiqarmay o'qish ko'nikmalari tarkib topgan bo'ladi. Shuning uchun ham bu bosqichda nutq faoliyatining turlaridan unumli foydalanishga harakat qilmoq kerak.

Masalan: og'zaki nutqni o'qishga ta'siri (tarjimasiz), o'qishni gapirishga ta'siri, yozuvni gapirishga ta'siri va x. k.

Shunday o'qish (Reading) yozuv va og'zaki nutqni o'stirish tayanchi bo'lib hizmat qiladi. Til materialini o'rganishda onglilikning oshib borishi kuzatiladi. Masalan, IV-V sinf o'quvchilarida taqlid qilishga istakning kuchliligi kuzatilsa, VI-VII sinf o'quvchilarida

esa o'qib o'rganishga nisbatan ongli munosabat shakllanadi. Shuning uchun ham darsni tashkil qilishga bo'lgan metodik talablar qat'iy bo'lishi kerak. Buning uchun esa u qiziqarli, bolalar imkoniyatiga (til o'rganish imkoniyatiga) mos bo'lmog'i zarur. Til materialini o'rganishni tashkil qilish ongli, mustaqillik asosiga qurilmog'i kerak, bu esa o'quvchilarning yosh hususiyatlariga mos keladi.

Mustaqil ishlash shakllari.

- a) Individual ya'ni kuchli va kuchsiz o'quvchilarni hisobga olish;
- b) Frontal individual vazifa berish (turli xil tekstlarni ichida o'qiy oladigan (silent reading) bilan ishlash; turli kartochkalardan foydalanish);

## **MAVZU: CHET TILI O'RGANISHNING O'RTANCHI BOSQICHINING BA'ZI BIR PSIXOLOGIK HUSUSIYATLARI.**

Ma'lumki chet tiliga o'qitishda o'quv jarayonini o'quvchilarning yosh hususiyatlarini hisobga olingan holda tashkil qilish muvaffaqiyat garovidir. Bu yerda eng muhimi o'quvchi oldiga qo'yilgan vazifa ularning qobiliyatlariga yarasha bo'lishi kerak, ya'ni u o'quvchiga xaddan ortiq qiyinchilik tug'dirmaslik kerak. Psixologiya kursida ma'lumki o'quvchilar (chet tili o'rganishni o'rtanchi bosqichida) bu yoshda tez o'sadilar, natijada ular tez charchaydigan, tez jahli chiqadigan, o'jar bo'lib qoladilar. Shuning uchun 4-5 sinflarda til o'rganishdagi aktiv faoliyatini unchalik aktivlikni talab qilmaydigan ish turlari bilan almash tirishi maqsadga muvofiq. Bu ayniqsa dars oxirida juda zarur. 7-8 sinf chet tili darsi til materialini o'rganishning tematik va intensivligi bilan ajralib turadi. Bu bosqichda o'quvchilar harakat qilib, harakatsiz (biror topshiriqsiz) turib qolishini yoqtirmaydilar. Shuning uchun 6-7 sinfda chet tili darsni temasini aslo susaytirmasligi kerak. Ba'zi ilmiy ishlarda ko'rsatilishicha 8-sinfga kelib o'quvchilarda chet tili materialini (turli mazmundagi) eslab qolish qobiliyati o'sadi, (so'zma-so'z eslab qolish emas, balki mushoxadaviy xotira) bilib olishga bo'lgan qiziqishi so'nadi. Ko'p o'quvchilar darsda zerikib o'tirishadi va aktivlik ko'rsatmaydilar, vazifani bajarishga befarq qaraydilar. Bu yoshdagi o'quvchilardga o'zini-o'zi boshqarishdagi irodalilik xoli etarli darajada shakllanmasa va ulardan ichki norozilik, tez jaxli chiqish, qarshilik bildirish kabi hususiyatlar kuchli bo'lib, bu chet tiliga bo'lgan qiziqishni keskin kamayishiga olib keladi. Ularda o'z kuchiga va o'z qobiliyatlariga bo'lgan ishonch susayadi. Bu esa o'quv jarayoniga ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi, o'qishga bo'lgan qiziqishni pasayish sabablaridan biri bu o'quvchilarning umumiy aktivligi va serharakatliligini o'quvchilik talablariga nomutanosibligidandir. Masalan: 4-5 sinfda ishonuvchanlik til o'rganishga bo'lgan tabiiy istak baho norma va kattalarni aytganini bajarish va x. k.

Agar biz 4-5 sinf o'quvchilari bilan 6-7 sinf o'quvchilarini yosh hususiyatlarini o'lchab ko'rsak, u xolda shu ma'lum bo'ladiki 4-5-sinf o'quvchilari uchun muhimi o'qishdir. 6-7 sinf o'quvchilari uchun esa chet tilini gapirish. Bu yoshdagi o'quvchilarda mustaqillilikga intilish o'z-o'zini boshqarish kabi masalalar kuchli. Ba'zan bir o'zini butun sinfga qarshi qo'yib, boshqalar oldida o'zini, o'zligini ko'rsatish, ba'zi bolalarda boshqa bolalar oldida o'zining qobiliyatligini ko'rsatish istagi kuchli bo'ladi. Ayni shu yerda bolalarni kelajagi haqida o'ylab ko'rish, biror kasbga qiziqishi shakllana boradi. Yuqorida bayon qilinganlarning barchasi chet tiliga o'qitishni va o'quvchilar faoliyatini nazorat qilishni qiyinlashtiradi. Buning oldini olish uchun maxsus ish olib borish zarur. Ya'ni ularni mustaqillikka intilish istagini qondirilishiga g'amxo'rlik qilish, uni to'g'ri yo'lga

solish kerak. Ayniqsa, 7-8 sinf o'quvchilarida agressivlik kuchli. Ularga nisbatan qattiq qo'llik qilish, nazoratni kuchaytirish, ulardagi agressivlikni kuchaytirib yuborish natijasida o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasida turli xil nizolarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun Alkazishvelin A.A. bunday vaqtda talabchanlikni biroz bo'shashtirish, o'quv jarayonida keskinlikni keltirib chiqaradigan elementlardan ya'ni musobaqalashishni chiqarib tashlashni taklif qiladi. Bu yoshda eng muhimi o'z faoliyatiga (ishda, uyida, o'qishda) muvaffaqiyatga erishishdir. Shuning uchun ham chet tili o'qituvchisi o'quvchilardagi chet tili o'rganishga bo'lgan ozgina yutuqlarni ham ko'rsatish lozim. O'quvchini qilgan xatosi uchun boshqa o'rtoqlari oldida uyaltirish, ularda o'qituvchiga nisbatan xurmatsizlikni agressivlikni qasos olishga bo'lgan xissini keltirib chiqaradi. 7-8 sinf o'quvchilari faoliyatining turida bo'lmasin, o'zini boshqalarga solishtirib ko'rishga harakat qiladilar va bunda ustunlikga erishishni xohlashadi. Ulardagi bu istak o'zlarini turli qiyinchiliklarga bardosh berishda, o'zlarini irodaliliklarini ko'rsatishga urinishadi va qo'rqinch ustidan g'alaba qozonishga intilishlarida namoyon bo'ladi. Ularda "o'zligini" namoyon qilish istagi kuchli, chet tili o'qitishning o'rtanchi bosqichida biz yoqorida korib o'tilgan psixologik, fizialogik xissiyotlarni o'ziga xosligini hisobga olgan holda o'quv jarayonini tashkil qilishimiz kerak. O'quvchilarga doimo o'rganilayotgan til materiali avval to'la tushinilgandek bo'ladi, lekin bu xato ularni albatta ma'lum vaqtdan song takrorlanmasligi xotirada saqlab qolinmaydi va aktiv sostavi bo'lmaydi. Material takrorlanib tursagina u o'zvlashtiradigan deyiladi. (10-20% eslash ortadi). Izoh: aktiv o'zlashtirish: passiv o'zlashtirish: o'rta bosqichdagi o'quvchilar uchun ichki mativdan tashqi mativ kuchliroq shuning uchun bu har ikkala mativdan oqilona foydalanish zarur. Bajarilayotgan mashqlar o'quvchilar oldiga qo'yilgan vazifalar muammoli harakatga ega bo'lishi kerak, ular intellektual emotsiyani keltirib chiqarishga undovchi stimuly bo'lishi kerak. Dars kommunikativlik printsipli asosida olib borilmog'i zarur unda har bir nutq faoliyatini mativ-real vaziyatdan kelib chiqishi muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar chet tili nutqidagi o'z muvaffaqiyatlarini hiz qilsinlar. 7-8 sinf o'quvchilari o'zlarini chet tili nutqi juda ham soda bo'lganligi uchun kulgiga qolmaylik deb, chet tilida gapirishga harakat qilmaydilar ham. Chet tili o'qitishning bu o'rtancha bosqichdagi muvaffaqiyatsizligi o'quv protsesining psixologik jihatdan soxta situatsiyaga moslashganligidandir. Ma'lumki ularning ona-tilidagi nutqi informatsiyaga boyligi bilan ajralib turadi. Ularning chet-tili nutqi esa primitiv, bo'lib o'quvchilarning istak xoxishlarini ifodalashga hozir emas. Shuning uchun darsda real voqealikdan kelib chiqadigan situatsiyalardan foydalanish, darsda turli xil o'yinlarni o'tkazish kerak. Lekin bunda 4-5 sinfga hos bo'lgan o'yinlardan foydalanish mumkin emas, chunki 7-8 sinf o'quvchisi o'zga sinfdoshlari oldida kulgi bo'lib qolishdan qo'rqishadi. Bunday vaqtda eng muhimi turli "Ролевин Игри" ro'llarda ijobiy yondashgan holda bajariladigan o'yin turlaridan foydalanish kerak. Bu yoshdagi bolalarni sinfdan tashqari ishlarga keng jalb qilmoq kerak. Afsuski ko'p hollarda bu maktablarda bajarilmaydi. Undan tashqari o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida chet tilidagi muloqot ham katta ro'l o'ynaydi.

## **MAVZU: O'RTA MAKTABDA CHET TILI O'QTISHING YUQORI BOSQICHI**

### **REJA**

1. Yuqori bosqichning umumiy karakteristikasi.
2. O'quvchilarning nutqiy malaka va ko'nikmalariga qo'yilgan talablar.
3. Og'zaki nutq va o'qishning bir-biriga munosabati.

4. Yuqori sinf o'quvchilarining o'rganayotgan fanlarga nisbatan munosabati
5. Ushbu bosqichdagi mustaqil ishlash shakllari va turlari.
6. Darsning asosiy turlari.

## ADABIYOTLAR.

1. Шатилов С.Ф. Методика обучения немецкому языку в средней школе. Просвещение 1977.
2. Рогова Г.В. Методика обучения английскому языку на начальном этапе в средней школе. Просвещение 1988.
3. Jalolov J. Ingliz tili o'qitish metodikasi. Toshkent "O'qituvchi"
4. Xoshimov O.X. Ingliz tili o'qitish metodikasi.

9-10 sinf o'quvchilarining yoshi o'smirlarning ilk davriga kelib bir qator psixologik hususiyatlar bilan harakterlanadi. Ulardagi yosh hususiyatlarining o'ziga xosligi 8 sinfdan boshlab tarkib topa boshlaydi. Psixologiya kursidan ma'lumki har bir yosh bosqichda oldingi bosqichdan yosh hususiyatlaridan ayrimlari saqlanib qoladi.

O'smirlar - bu shaxsni tarkib topish va kamolatga etishidir. Bu yoshda o'smirlarda tashqi muhitga munosabat va o'z faoliyatiga baho berish hususiyatlari rivojlanadi. Lekin shu bilan birga o'smirlarga xos narsa bu kuchiga ortiqcha baho berish va o'zligini ko'rsatishdir. Bu esa tez-tez turli xil qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. O'quvchilarning xotirasida, o'quv predmetlariga, chet tili predmetiga bo'lgan munosabatlarida ham sezilarli o'zgarish yuz beradi. Masalan: 7-8 sinf boshlarida chet tili o'rganishga bo'lgan qiziqish so'nadi. Lekin 9-10 sinfga kelib o'quvchilar chet tili o'rganishga alohida bir qiziqish va javobgarlik bilan qaraydilar. Bu bosqichda o'quvchilar psixologiyasining o'zgarishi tufayli avvalgi bosqichlarda yaxshi natija bermasligi mumkin. Yuqori sinf o'quvchilari bajarish maqsadi aniq bo'lmagan mashqlarni qiziqishsiz., befarqlik bilan bajaradilar. Ammo ular ma'no jihatdan bog'liq tekstlarni alohida bir qiziqish bilan o'qishadi. Bu bosqichda mustaqil ishlash alohida rol o'ynaydi, ayniqsa chet tili bilan. Yuqori sinflarda darsga qo'yilgan talablar oldingi etaplardagidan farq qiladi. Endi dars og'zaki nutq asosida ko'rilmaydi, chunki bu bosqichda til materialining ko'pchilik qismi passiv ravishda (retseptiv holda) o'rganiladi. Ya'ni o'qib tushinish asosiy rol kasb etadi. Textlar ham xajmi jihatidan, katta til materialini esa murakkabdirlar.

Darsni kompleks asosda tashkil qilish til materialining ayrim tomonini (leksik va grammatik) ayrim holda o'rganish bilan almashib turishi kerak. Bu bosqichda chet tili o'qitishning qiyinchilik tomonlaridan biri dars soatlarining kamayib ketishidir. Og'zaki nutq ko'nikmalari faqat darsda erishiladi, shuning uchun yuqori sinflarda dars soatining cheklanganligi tufayli biz avval dialogik va monologik nutq sohasida erishilgan ko'nikma va malakalarni saqlashimiz va takomillashtirishimizga to'g'ri keladi. O'quvchilar sinfdan mamlakatimiz va Angliya xalqidagi o'zlarini qiziqtiradigan voqealar yuzasidan suhbat olib borishlari kerak. Nutqni tinglab tushinish malakalarini o'stirishga e'tibor bermoq kerak. Bu bosqichda tez o'qishga o'rganishdan tashqari o'quvchilar chet tili, ona tili lug'atidan foydalanishni o'rganishlari kerak. Kontekstdan tushinishga o'rgatish ko'nikmalari ham shu bosqichdan boshlanadi, demak, tekstlarda ba'zi notanish so'zlar bo'lishiga yo'l qo'yiladi. O'qish bo'yicha amaliyot engil lug'atga murojaat qilmaydigan tekstlar asosida amalga oshiriladi.

## Grammatik material.

The Past Continuous, The Past Perfect; Future in the past Ind; Bu bosqichda o'quvchini shaxsini rivojlantirish va uning dunyo qarashini tarkib toptirish imkoniyatlari kengayadi. Mantiqiy xotirani (mushoxadaviy) rivojlantiruvchi topshiriqlar bo'lmog'i kerak, chunki bu bosqichda o'quvchilarda xotirada saqlab qolish zarur bo'lgan ko'p materiallar to'planib qoladi. Bir-biriga bog'liq, mazmunli tekstlarni o'qish, chet tilidan axborot olish, imkoniyatini kengaytiradi. Bu bosqich chet tili o'qitish metod va usullarini ma'lum darajada o'zgartirishni talab qidadi.

Dialogik nutqni baxs, muhokama tarzida o'tkazish foydalidir. Bunda stimul beruvchi nutqiy situatsiyalarning roli katta. Masalan: O'rtog'ingiz bilan kinoga borish haqida kelishib oling. Bunda dialogda 2 emas, balki bir necha kishini ishtirok etishi katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, dialoglarni instsenirovka qilish o'quvchidarda qiziqish uyg'otishi mumkin. Bunda xayrat, quvonch, ajablanishni ifodalashga o'rgatish zarur. Bu o'z navbatida tabiiy nutqqa undovchi o'yindir. Ammo shunga e'tibor berish kerakki instserovka qilinayotgan dialogning ayrim elementlari avval oldindan ishlangan bo'lishi kerak. Buning uchun tayyorlov mashqlari zarur. Masalan: replikaga turli javoblar berish; rad qilish; qarshi savol berish;

Monologik nutqni o'stirishga bog'liq fikr bildirish ko'nikmalarini o'stirish zarur. Bunda quyidagi topshiriqlar foydalidir:

1. Say where you went on Sunday, and whom you went with.
2. Say about the boy you met in the street where he was from.
3. Say how you went to Tashkent and what you saw there.

O'quvchilarni mulohaza qilish faktlarini aytishga o'rgatish zarur. Topshiriqlar o'zbekcha bo'lishi ham mumkin:

1. Siz nimaga qiziqishingizni aytib bering.
2. Siz nima uchun chet tilini yoqtirasiz (yoki yoqtirmaysiz) aytib bering va x. k.

Tekstlarni o'qitishda o'quvchilarga ayrim faktlarni isbotlov-chi topshiriqlar berish foydali. Masalan:

Give as many facts from the text as you can to prove the following.

He was a bad boy.

He was a true friend . va x. k.

Eshitib-tushinish (audirovaniya) ko'nikmasini o'stirishda tekstni bir necha bor eshitish tavsiya qilinadi. Bunda tekst avval sekin, keyin esa tezroq o'qiladi. Har o'qilgandan keyin o'quvchilarning qanday yangi faktlarini tushinganliklari bilib olinadi. Ularni buning uchun baholash ham tekstni eshitib tushinish ko'nikmalarini o'stirishda eng muhimi o'quvchilarni har qanday qiyinlikdagi tekstni birinchi bor eshitgandayoq uning butun mazmunini umumiy tarzda fahmlab olishga o'rgatish kerak.

(Reading: orientirlarga tayanib o'qishga o'rgatish)

Lug'atdan foydalanishga o'rgatish;

(turli xil lug'atlar bilan tanishtirish).

40-60 ming so'zli lug'atlar maktab sharoiti uchun eng qulay lug'at.

Shuningdek o'quvchilarni lug'atsiz kontekst yordamida tushinishga ham o'rgatish zarur. Bu badiiy adabiyotlarni o'qishda kerak. Internatsional so'zlarni tanib olishda o'quvchilar diqqatini chet tili so'zi bilan ona tili s'o'zlari o'rnida ma'lum muvofiqlik borligiga tortmoq kerak. Masalan: ism-izm.

Yuqori sinflarda (9-10) adaptatsiya qilingan kitoblardan tashqari ilmiy ommabop va badiiy ommabop va badiiy adabiyotlardan olingan ayrim tekstlarni ham o'qishga o'rgatiladi. 10 sinf gazetadan qisqaroq maqolalarni, informatsiyalarni o'qishga o'rgatish zarur. Og'zaki nutq 10 sinf o'quvchilarga o'zlari qiziqqan mavzular yuzasidan suhbat olib borish kabi topshiriqlar berish foydali. Tekstni o'z so'zlari bilan ya'ni oddiygina so'zlab berish o'quvchilarda avval qiziqish uyg'otmasligi mumkin. Lekin tekst yangi axborot manbai sifatida uning mazmunini o'rganishda bu shart hisoblanadi. Og'zaki nutq mazmuni murakkablashadi, o'qilgan tekst yuzasidan olib borilgan suhbatdan o'quvchilarni qiziqtiruvchi va xayajonlantiruvchi masalani muhokama qilishga o'tadi. Avvalgi o'rganilgan so'zlarni so'z birikmalari sifatida boshqa ma'noda taniydilar. Macalan:

hand - the hand of delegation

to see - I don't see why

to fall - to fall ill va x. k.

Qiyinchilik - dars soati kam. Nutqqa tayyorlov mashqlarini salmog'i ortadi.

Masalan:

Fikrni davom ettiring (gap qo'shing);

Aytilganni aniqlang;

Bayon qilingan fikrni to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang;

Bu bosqichda til materialini so'zlar, so'z birikmalari va ranglarni safarbar qiluvchi mashqlar foydali tayyorlov mashqlari bo'ladi. Nutqiy mashqlar yuqori sinflarda bir tomondan, tekstlar ikkinchi tomondan og'zaki nutq uchun belgilangan mavzular atrofida ko'riladi.

Turli qarash:

a) faqat mavzular

b) faqat tekstlar

Masalan: Kino mavzusi.

Siz kinoga qachon, kim bilan borganingiz haqida so'zlab bering. Filmda bosh rolni kim o'ynaganligini, o'zingiz yoqtirgan aktyorlar haqida aytib bering.

3. Situatsiya: do'stingizni uchratib qoldingiz, unga ko'rgan filmingiz haqida so'zlab bering.

Mavzular bo'yicha ishlash materialini ma'lum darajada sistemaga solishga yordam beradi, o'quvchilar o'z muvaffaqiyatlarini o'zlari ko'radilar. Situatsiyalar real va xayotiy bo'lishi kerak.

Topshiriq:

Tekstdagi ma'nodan nima yoqdi-yu, nima yokmadi?, so'zlab bering;

Tekstni reja bo'yicha so'zlab bering; o'zingiz yoqtirgan kitob yoki yozuvchi haqida so'zlab bering;

Nutqning bunday "Tayyorlanmagan" formalaridan tashqari yuqori sinflarda "Tayyorlangan" nutqdan ham topshiriqlar bo'lishi kerak. Masalan: o'qilgan material yuzasidan axborot, ma'ruza, gazetadagi maqolani sharxlash va x. k. Keyinchalik kuchli o'quvchilarga axborot tayyorlashni buyurish mumkin.

Dialogik nutqni o'stirish: intervyudan foydalanish mumkin. Bir o'quvchi bola o'quvchilarning savollariga javob qaytarishi mumkin.

Audirovaniya: Maxsus tekstlarni tinglashni mashq qilish. Bu tekst keyincharoq suhbat uchun mavzu vazifasini o'taydi. Bunda tekstni asosiy g'oyasi tushinilganligi aniqlanadi, qiziq materialni ma'lum qilish imkonini beradi.

Tekstni necha marta tinglash kerak?

Til materialini o'zlashtirish.

Yuqori sinflarda o'qiganni tushinish uchun kerakli bo'lgan til materiali o'rganiladi. Masalan: Participle (Gerund Infinitive).

Egallangan bilimlarni sistemaga solish kerak. Eshitilishi jihatidan bir-biriga yaqin juft so'zlarni tinglash va takrorlash;

O'qish vaqtida eng katta qiyinchilik tug'diradiganlardan biri frazeologiyadir. Frazeologik birikmalarni o'quvchilar qismlarga aylantira olmaydilar.

Masalan; to give one's word - to take part - to take points - to put one's best foot forward etc.

Lekin ba'zilarini tarkibiy elementlarini so'ratish mumkin. Bu esa ularni ma'nosini tushinishga yordam beradi. Biroq, quyidagi birikmalarni tarkibiy qismlarga ajratish orqali ularni ma'nosini tushinish oson.

Masalan: make a play, make a mistake, to take a bus, to take a train va x. k.

Frazeologik tushunishni o'rgatishda o'quvchilarni aktiv minimumida bor bo'lgan namunalarga asoslangan holda olib borish kerak. Bunda frazeologik birikmalarni ona tili ekvivalentini topish kabi mashqlarni bajarish kerak.

Darslarni tuzilish tiplari.

8-9-10 sinf darslarining tuzilishi oldingi bosqichlardagiga nisbatan ancha o'zgaradi. Bu uyda mustaqil ishlashlarining ortishi xissasiga ham bog'liqdir.

I tip darslarining maqsadi va vazifalari til materialini (jummalarni leksik, grammatik) sistemalashtirish va nutq faoliyatining barcha turlarida ulardan bir-biriga yaqinroq bog'langan holda foydalanish. Masalan: situatsiyalarga qarab leksik materialni ishlatish va notanish leksik grammatik birikmalarini konspektga muvofiq qo'llash. Ikki til lug'atdan foydalanish.

I tip darslarining o'ziga xos xususiyati o'quvchilarning mustaqil ishi (Masalan: mat. gruppalariga ajratish lug'at bilan ishlash) kabi dars zvenolarini, qismlarini o'qituvchi topshiriq berib javob oluvchi qismlar bilan tez-tez almashib turishi kerak. (M: topshiriq javob reaksiya, topshiriq javob reaksiya)

II tip darslari. maqsad va vazifalari: nutqiy ko'nikmalarining barcha turlari bilan chambarchas bog'langan holda konkretlashtiriladi. Masalan: tarjimasiz o'qish (lug'atsiz) va o'qilgan material sohasidan monolog tarzda fikr bayon qilish, o'qilgan tekst bo'yicha dialogik nutqni o'stirish; 10-12 jumladan iborat bo'lgan monologik nutqni o'stirish; yozma nutq o'qilgan mavzuga annotatsiya berish so'ngra qilganni muhokama tarzda o'stirish;

mustaqil ishlash

dars o'qitish topshiriqni bajarish kabi qismlar.

yo'l-yo'riq ko'rsatish.

Metodik adabiyotda yuqori sinflarda bir maqsadga ega darslar bo'lishi kerak deyiladi. M: G. V. Rogova, a) o'qish darslari b) og'zaki nutqni o'stiruvchi darslar.

Darslarni tekst bilan ishlash etaplariga muvofiq bo'lish (passiv) maqsadga muvofiq emas, chunki monolog va dialog ko'nikmalarini hosil qilish etaplariga bunga mos kelmaydi. Darslarni tekst bilan ishlashga qarab gaplar tiplarga ajratiladi. Yakun to'g'ri tanqid qilinadidi. Bu holda chet tili o'qitish tekstni o'rgatishga tenglashib qolgan bo'lar edi.

S.F.Shatilov nutq faoliyatini turlariga va maqsadiga ko'ra tiplarga ajratadi. Darsning asosiy maqsadi, o'qishga o'rgatishga yordamchi og'zaki nutq ko'nikmalarini o'stirish. Og'zaki nutq darslarining asosiy maqsadi, o'qish yordamchisidir. Kombinirovaniya o'qish va og'zaki nutqga o'rgatish teng olib boriladigan darslar.

Demak xulosa qilib aytganda,

I. Yuqori bosqichda chet tili o'qitishning o'ziga xos hususiyatlari:

1. Yosh hususiyatlari
2. Material xajmi
3. Nutq faoliyatining asosiy turlarini bir-biriga munosabatlari
4. Nutq malaka va ko'nikmalari bilan ishlashni harakteri
5. O'qitish sharoitlari

II. Asosiy maqsad:

1. Nutq malakalarini o'stirish;
2. Aktiv til materialini o'rganish orqali individual nutq tajribasini boyitish;
3. Dialog va monologlarning nutq turlarini tayyorlanmagan nutqda qo'llashga o'rgatish;

III. O'qishga o'rgatish:

1. Asosiy o'qish turi, butun mazmuni bilib olishga o'rgatish.
2. Qiyin joylarni analiz qilish orqali lug'at yordamida o'qishga o'rgatish.

IV. Mustaqil ishlar: 1. Mustaqil o'qish

2. Tekstdan foydalanish va x. k.

## **MAVZU: DARSNI REJALASHTIRISH**

### **REJA**

- 1.Rejalashtirishning ahamiyati
- 2.Tematik rejalashtirish
- 3.Darsning asosiy komponentlarini rejalashtirish

## **A D A B I Y O T L A R**

- 1.J. Jalolov. Chet tili o'qitish metodikasi.  
Toshkent, "O'qituvchi" 1996 yil
- 2.O'. X. Xoshimov, I. Y. Yokubov. Ingliz tili o'qitish metodikasi.  
Toshkent, "O'qituvchi" 1994 yil
- 3.Рогова Г.В. Методика обучения английскому языку.  
«Просвещение» 1997 год
4. Adrian Dorff.  
Teach English. A training cours for teachers.  
Cambridge. University Press 1988.



## S A V O L L A R

1. Rejalashtirish qanday ahamiyatga ega?
2. O'quv jarayonini rejalashtirishda nimalarga e'tibor bermog' kerak?
3. Tematik rejalashtirishni qanday tushunasiz?
4. Kundalik dars rejasini tarkibiy qismlarini sanab, izohlab bering?
5. Chet tili darsi mazmuni va mohiyati hususida metodik adabiyotlarda qanday fikr bildirilgan?

Rejalashtirish o'rta makablarda o'rganiladigan barcha predmetlarni shu bilan birga chet tili o'rgatishni ham muvaffaqiyatli amalgam oshirish garovidir. Rejaning qaysi tipi bo'lmasin (hoh dars rejasi, hoh tematik, calendar yoki yakuniy) u o'quv materialini barcha psixologik va metodik qonuniyatlar, printsiplar asosida ma'lum bir davrga bo'lib o'rganishni taqazo etadi va tegishli ko'nikma va malakalarni o'stirishni nazarda tutadi.

Rejalashtirishda quyidagilarga e'tibor qaratmoq kerak:

- a) chet tili o'qitishning boshlang'ich bosqichida (4-sinf) chet tili darsini tashkil qilishni rejalashtirish;
- b) sinfdagi o'quvchilarning bilim darajalarini hisobga olgan holda darsni rejalashtirish;
- c) darsni rejalashtirish o'quv yili boshlanishidan oldin bajarilishi kerak;
- d) o'qituvchi darslikni va undagi til materialini yaxshi bilishi va taxlil qila olishi lozim;
- e) o'qitishning shart-sharoitlarini, psixologik qonuniyatlarini, nutq ko'nikmalarini hosil qilish bosqichlaridan yaxshi xabardor bo'lishi;
- f) zamonaviy chet tili darsiga qo'yilgan asosiy talablarni bilish.

### Tematik rejalashtirish

Chet tili o'qitishda 2 xil rejalashtirish farqlanadi:

1. Tematik rejalashtirish
2. Kundalik dars rejalashtirish.

Darsni rejalashtirishning asosiy maqsadi chet tili o'qitish maqsadi, vazifalari, til materialining hajmi, dars jarayoniga kiritish ketme-ketligi va shunga mos ravishda nutqiy ko'nikma malakalar hosil qilishdan iborat. Rejalashtirish yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar oldindan aniqlanadi va uni bartaraf qilish yo'llari va tegishli mashqlar tuziladi. Rejalashtirish bir necha bir-biriga bog'liq bo'lgan bosqichlarni o'z ichiga oladi. Shunga ko'ra yillik reja, tematik reja va oddiy bir dars rejasini farqlash mumkin. Yillik reja darslik mualliflari tomonidan tuziladi. U o'z navbatida yarim yillik va chorak rejalariga bo'linadi. Unda o'rganiladigan mavzular aniqlashtiriladi. Har bir mavzuni o'rgatishga ajratilgan dars soatlari bilimlar ko'lemi, nutq shakllarining o'sish darajasi, o'tkaziladigan nazorat turlari vaqti hisobga olinadi. Shuni ta'kidlash kerakki har qanday yillik reja yaxshi tayyorgarlik asosida tuzilmog'i lozim. Agar biron bir sababga ko'ra rejaga o'zgartirishlar kiritiladigan bo'lsa ular yarim yillik va choraklik rejalarida o'z aksini topishi kerak. Chet tili o'qituvchilari shahar yoki tuman metod birlashmalari tomonidan tavsiya etilgan rejalar asosida ish olib borishadi. Tematik reja (unit plan) metod birlashma tomonidan tuzilsada u o'qituvchining tashabbuskorligini cheklab qo'ymasligi kerak. Chet tili o'qitish jarayoni ijodiy jarayon hisoblanib, o'qituvchi zarur hollarda unga

o'zgartirishlar kiritishi mumkin. Tematik rejalashtirishning asosiy vazifasi bu ma'lum mavzuni o'rganish natijasida erishiladigan yakuniy maqsadni aniqlashdir. Tematik reja asosida o'qituvchi har bir darsga alohida kundalik reja tuzadi.

Kundalik reja quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1.ma'lum bir dars yakunida nimaga erishishni;
- 2.qo'yilgan vazifani amalgam oshirish uchun qanday til materialini o'rganishni;
- 3.belgilangan maqsadga erishish yo'llarini aniqlashni.

Kundalik rejada dars mavzusi, maqsadlari, jihozlanishi va darsni tashkil qilish bosqichlari o'z ifodasini topadi.

Dars strukturasi quyidagilar kiradi:

- Darsning boshlanishi (tashkiliy davr, davomatni aniqlash, til muhitini hosil qilish);
- Fonetik mashg'ulot o'tkazish (ayrim qiyin bo'lgan tovushlar ishtirok etgan so'zlarni o'qishni mashq qilish, she'r yoki ingliz tilidagi avval o'rganilgan ashulani qaytarish va h. k.)
- Uy vazifasini tekshirish;
- Yangi o'quv materialini dars jarayoniga kiritishning texnologik ketma-ketligi (u til materialining berilish ketma-ketligi, mashq qilish va nutqiy vaziyatlarda qo'llash bosqichlarini o'z ichiga oladi)
- Baholash;
- Uy vazifasini berish (har bir vazifa o'quvchilarga tushuntirib berilishi lozim)
- Dars oxiri.

Chet tili darsi haqida ko'plab monografiyalar va maqolalar yozilgan. Ularga misol qilib Kazantsev I. N. , Rogova G.V.larning ishlarini va "Inostranniye yaziki v shkole" jurnallarida chop etilgan maqolalarni keltirish mumkin. Chet tili darsining mazmuni va mohiyati hususida pedagogik adabiyotlarda ko'plab ma'lumotlar berilgan. M. A. Danilov darsning muvaffaqiyati uchun quyidagilar muhimligini aytadi:

- dars mazmuni va maqsadi o'quvchilarning yosh hususiyatlariga mos kelishi kerakligi;
- darsning talimiy va tarbiyaviy tomonlarining birligi;
- darsning barcha bosqichlarida o'quvchilarning faolligi;
- darsning har bir daqiqasidan samarali foydalanish;
- darsni tegishli jihozlash;
- dars oxirida uning natijasi sezilarli bo'lishi.

A. I. Kochetovning fikricha darsda ta'limiy maqsadni tarbiyaviy maqsadga bo'y sundirilishi, kollektiv (jamoaviy) va individual ish shakllarining birligi turli metodlarning qo'llanishi, xotira, diqqat va tafakkurni o'stirish qonuniyatlarini hisobga olish kerak.

N. I. Vershagina va F.M. Rabinovich darsni yana ham kengroq xarakterlaydi. Ular dars oldiga quyidagi vazifalarni qo'yishadi:

- o'quvchilarning nutq faoliyatini o'stirish
- dars maqsadiga erishish yo'lidagi ketma-ketlilik
- nutq faoliyati stimullarining rang – barangligi
- qo'llaniladigan usullardagi samaradorlik va aniqlik
- o'quvchilarning dars maqsadini va uning bosqichlari vazifalarini aniq bilishi, individual va jamoaviy ish shakllarini qo'shib olib borish
- o'quvchilarning qiziqishlarini susaytirib yubormaslik, ularning shahsi va his-tuyg'ulari bilan hissoblashish

- ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarni darsda hal qilish

Xulosa qilib aytganda, chet tili o'qituvchisi darsni rejalashtirish va dars turlariga hamda dars hususida yuqorida keltirilgan fikrlarni hissobga olgan holda chet tili o'qitishni rejalashtirsa va darsni zamon talabiga va dars maqsadiga mos tog'ri tashkil qila bilsa darsning samaradorligi va yakuniy natija kafolatlanadi.

## **MAVZU: O'QISHGA O'RGATISH**

### **REJA**

1. O'qish nutq faoliyati turlaridan biri.
2. O'qishga o'rgatishning o'rta maktabda chet tili o'qitishdagi roli va o'rni.
3. O'qishning psixofiziologiya harakteri.
4. O'qishni og'zaki nutq va urga yozuv bilan munosabati,
5. O'qish turlari va o'rta maktabda o'qishga qo'yilgan talab.

### **ADABIYOTLAR**

1. Рогова Г,В. Методика обучения английскому языку. М., Просвещение,, 1977
2. Xoshimov U. X va Ekubov I. Y. "Ingliz tili o'qitish metodikasi. T. "O'qituvchi" 1995.
3. Jalolov J. Ingliz tili o'qitish metodikasi. T. "O'qituvchi" 1996.
4. С.Ф. Шатилов ,, Методика обучения немецкому языку в средний школе М.1987. 85 -96 бетлар
5. А.П. Старков . Методика обучения английскому языку.

Chet tilida o'qish malakalarini hosil qilishda va o'stirishda o'qishning ro'lini va uning o'quv jarayonidagi o'rnini aniqlab olishimiz kerak. Ma'lumki chet tili o'rgatishda o'qishning 2 funktsiyasi mavjud:

1. O'qish - chet tili o'rgatishda maqsad hisoblanadi;
  2. O'qish - chet tili o'rgatish vositasi.
- Birinchi funktsiyani ko'rib chiqaylik.

O'rta maktabda chet tili o'qitishda o'qish malakalarini hosil qilish amaliy maqsadlardan biri hisoblanadi. O'qish malakalarining darajasi o'quvchini chet tilida o'qishni nutq faoliyatining turi sifatida qo'llash bilan o'lchanadi.

Bu esa o'qish vaqtida kitobxon (o'quvchi) oldiga qo'ygan maqsaddan kelib chiqadi. Shunga ko'ra o'qish jarayonidagi situatsiya turlicha bo'lishi mumkin.

Matndan informatsiya olish uchun o'qish;

Matndan informatsiya olish bilan birga uni ayni paytda boshqa kishiga (o'quvchiga) uzatish;

Bunda, birinchi holatda, ovozsiz o'qishga o'rgatilsa ikkinchi holatda ovos chiqarib o'qish tavsiya qilinadi. O'rta maktabda ovozsiz o'qishga o'rgatish kerak, chunki ovoz chiqarib o'qish o'qituvchilar, aktyorlar, suxandonlar kabi ayrim soxa kishilariga ta'luqli. Ko'pchilik uchun o'qish vaqtida informatsiya olish asosiy maqsaddir. Bu esa ovozsiz o'qish malakalarini o'stirishni talab etadi.

Matn informatsiya olish uchun o'qilganda o'qishning quyidagi 3 turi farqlanadi:

- a) Ko'zdan kechirib chiqish.
- b) Sinchiklab o'qib chiqish
- c) Tanishib chiqish (izohlash kerak)

"a" punktida ya'ni ko'zdan kechirib chiqilganda o'qilayotgan tekst (maqola, kitob)ning tematikasi haqida tushunchaga ega bo'lish maqsad qilib qo'yiladi. Buning uchun esa kirish qismini ba'zi abzatslarini yoki ayrim gaplarni tezda o'qib, ya'ni ko'zdan kechirib chiqish etarli.

O'qishning "tanishib chiqish" turida o'quvchi o'qilayotgan matn, maqola yoki kitobning aniq mazmunini bilishni maqsad qilib qo'yadi va butun diqqatini asosiy (informatsiyaga) axborotga qaratadi, shuning uchun ham o'qishning bu turi ba'zan butun mazmunini qamrab olishga qaratilgan o'qish ham deb ataladi.

O'qishning 3-turida, ya'ni sinchiklab o'qilganda o'quvchi matndan anglashilayotgan mavzu bilan to'la taninish, uni tanqidiy analiz qilish va olingan axborotni kelgusida qo'llash aniq maqsad qilib qo'yiladi

O'qishning bu turi sekin amalga oshiriladi. Zarur bo'lsa tekstning ayrim joylari qayta o'qiladi. O'qishga o'rgatishda o'qishning tezligi masalasi ham katta ahamiyatga ega biz quyida unga qo'yilgan talablarni ko'rib chiqamiz.

1)"Tanishib chiqishga" qaratilgan o'qish turida matnni tushinish darajasi shu matndagi asosiy faktlarning 70%ni o'z ichiga olishi kerak. Asosiy axborotni tushinish aniq bo'lmog'i lozim, o'qish tezligi 180-190 ta so'zdan iborat, (minutiga)

2)"Sinchiqlab o'qish" turida mazmunni tushinish 100% bo'lmog'i kerak. Bunda eng muhimi o'qilayotgan matn, maqola yoki kitobdagi axborotni to'liq tushinish talab etiladi. O'qish tezligi ikkinchi darajali, lekin u minutiga 50-60 ta so'zdan kam bo'lmasligi kerak.

3)"Ko'zdan kechirib chiqish" o'qishning bu turida o'quvchidan keng xajmdagi til materialiga ega bo'lishlik talab etiladi. Shuning uchun ham o'rta maktabda o'qishning bu turini ayrim elementlarnigina o'rganish talab etiladi. Masalan: matnning temasini aniqlash kabi. Minutiga 1-1,5 saxifani ko'zdan kechirib chiqish kerak. O'qishga qo'yilgan ushbu talablarni bajarish hosil qilinayotgan o'qish malakasini amalda qo'llab bilishga imkon beradi. Shuni aytib o'tishi kerakki o'qishga o'rgatish ya'ni chet tili o'qish amaliy maqsadni amalga oshirishga yordam beradi. (Uqilayotgan kitob, matndagi axborot o'quvchilarning dunyoqarashini o'stirishda va x. k.)

O'qish - chet tilini o'rgatish vositasi. O'qish nutq faoliyati turlaridan biri bo'lganligi uchun ham u chet tili o'qitishning effektiv vositasi bo'la oladi. Masalan: til materiali

ko'rish sezgilari orqali idrok etilganda xotirada yaxshi saqlanishi ilmiy jihatdan asoslangan. Shuning uchun ham yuqori bosqichda (8-9-10 sinflar) matnlarini o'qish o'quvchilarning lug'at boyligini o'stirish usullaridan biri hisoblanadi.

JO'qish jarayonida eslab qolish 2 xil bo'ladi,

1. Ixtiyorsiz ("tanishib chiqish" – ознакомительные чтение)
2. "Ixtierli" diqqatda o'quvchilarning diqqati ongli ravishda ma'lum bir vazifaga qaratiladi. Masalan: mazmunigagina emas, balki uni ifodalovchi til birliklariga ham qaratiladi.

Metodik adabiyotlarda ekstensiv (faqat mazmun) va intensiv (mazmundan til materiali) o'qishga qaratilgan matnlar tanlanadi. Chet til o'qish "Til tajriba"sini hosil qilishga yordam beradi. O'qish og'zaki nutq o'stirishga ham yordam beradi. Masalan: ovozsiz va ovoz chiqarib o'qishda gapirishda ishtirok etadigan barcha analizatorlar qatnashadi. Ayniqsa ovoz chiqarib o'qish katta ahamiyatga ega. Masalan:

- 1) Talaffuzni o'stirishda;
- 2) Gapirish malakasini hosil qilishda qimmatli mashq hisoblanadi. (ko'rish signallari ovoz signallariga aylanadi).

O'qish paytida aqliy faoliyatning (operatsiyalarning) qay tomonga yo'naltirilganligiga ko'ra o'qishning

- a) analitik
- b) sintetik turlari
- c) tarjimasiz
- d) tarjimali farqlanadi.

O'quvchilarga beridgan yordamning harakteri va darajasiga ko'ra lug'at yordamida va lug'atsiz o'qish farqlanadi.

Tayyorlangan va tayyorlanmagan o'qish forma turlari tashkil qilish formasiga ko'ra:

1. Sinfda va uyda o'qish turlari.
2. O'qituvchini topshirigiga ko'ra o'qish.
3. O'z ixtiyori bilan o'qish.
4. Frontal o'qish (hamma bir tekstni o'qiydi).
5. Individual o'qish.

Ovoz chiqarib o'qish ko'nikma va malakalarni nazorat qilish, tekshirish uchun ham qo'llaniladi. O'qish malakalarini o'stirishda o'quvchi etarli darajada leksik va grammatik materialni bilish kerak. Etarli darajada deganda biz tekstdagi til birliklarini 70-80% o'quvchiga tushinarli bo'lishi kerak.

O'qishga o'rgatishni mazmuni haqida so'z yuritganimizda o'qish uchun tanlangan matnlarga qo'yilgan talablarni ko'rib chiqishimiz zarur.

- 1) Matnlarning g'oyaviy va tarbiyaviy qimmatini zarur.
- 2) Matnlarni talimiy ahamiyati. Ular til o'rganilayotgan mamlakat va xalk xayoti to'g'risida aniq ma'lumot berishdadir.

O'qish uchun tanlangan matnlar o'quvchilarni qiziqishini va yoshini hisobga olgan holda tanlanmogi kerak.

## **O'qishga o'rgatishning maxsus printsiplari.**

1. O'qishga o'rgatish - nutq faoliyatiga o'rgatishdir. (Ba'zan o'qishni chet tili o'qitish vositasida qo'llashga zo'r beriladi. Bu esa o'qishni nutq faoliyatining turi sifatida o'rgatishga to'sqinlik qiladi).
2. O'qishga o'rgatish, o'rganish, bilish asosiga qurilmog'i lozim. (eng muhimi axborot olish. Buning uchun esa matnlar mazmuniga katta e'tibor bermoq kerak. Shuning uchun ham o'qish uchun tanlangan matnlar o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lishi kerak). Bu matnlar o'quvchilarda aktivlik uyg'otishi kerak.
3. Chet til o'qishga o'rgatish o'quvchilarning ona tili o'qishdagi tajribasiga suyanmog'i lozim. Odatda ona tilida o'qilganda ko'proq ovoz chiqarib o'qiladi. Ingliz tili o'rgatishda ham o'qishning bu turini ertaroq, masalan: IV-sinf o'quvchilari tovush-harf belgilarini o'rganib olgandan so'ng boshlagan ma'qul. Bunda ososiy matnlar olinishi kerak.

O'qilganni tushinishda o'quvchilar til strukturalarini yaxshi egallagan bo'lishlari kerak. Til strukturalarining (gram.) vazifasi ma'noni ifodalab berishdir. Ularni yaxshi egallash esa o'qish jarayonini osonlashtirib va tezlashtiribgina qolmasdan gaplarni turli sintagma va ma'naviy guruhlariga bo'lib ular o'rtasidagi munosabatni ham o'rgatadi. Bu esa matnni to'la tushunishga yordam beradi.

O'qishga o'rgatish o'quvchilarning retseptivgina emas, balki reproduktiv faoliyatini ham o'z ichiga oladi. O'qishni nutq faoliyatining turlaridan biri bo'lishligi, o'qish jarayonida kechadigan operatsiyalarni avtomatlashtirishni talab qiladi.

IV-V sinflarda o'quvchilar o'quv texnikasini egallashga qaratilgan operatsiyalarni o'rganib olishlari kerak. Lekin shu bilan birga ovoz chiqarmay o'qishni ham o'rganishni boshlashlari kerak.

VI-VII sinf o'quvchilari o'zlariga tanish material asosida tuzilgan matnlarni o'qish jarayonida o'qishning "Tanishib chiqish" turini egallaydilar. Ovoz chiqarmay o'qish tezligi ovoz chiqarib o'qish tezligidan o'tib ketishi kerak edi. (notanish so'zlarni lugatsiz va lug'at yordamida tushinib olish).

VIII-X sinf o'quvchilari ko'zdan kechirib chiquvchi o'qish turini ayrim elementlarini o'rganishadi. O'qishga o'rgatuvchi mashqlar sistemasini takomillashtirish va unga texnologik nuqtai nazaridan yondashish hozirgi vaqtdagi dolzarb masalalardan biridir.

O'qish jarayonida asosan 3 vazifani yechish kerak.

1. Grafik belgilarini dekodlashtirib ma'noga aylantirish;
2. Matndagi aniq axborotni ajratib olish;
3. Matndagi aniq axborotni aniglab olish;

O'rta maktabda o'quvchilar o'qishning barcha turlariga xos bo'lgan umumiy malakalarni (o'rganishadi) egallashadi. Til materialini tushinish malakasi (so'zlarni tezda tanib olish, ularni grafik obrazini tovush-motor obrazi bilan solishtirish va x.k.)

**MAVZU: O'QISHGA O'RGATISH (2-qism)**

Ovoz chiqarib o'qish o'qishning barcha bosqichlarida bo'lishi shart, lekin u yuqori bosqichga o'tgan sayin kamayib boradi. O'qish jarayonida o'qilganni tushinib olish to'la aniq bo'libgina qolmasdan, balki tez bo'lishi ham kerak. Tez-tez o'quvchilarning matni o'qish tezligini tekshirib turmoq kerak. (Masalan: 1 oyda bir marta). O'qishga o'rgatishdan kelib chiqadigan qiyinchiliklar ingliz tilida 26 ta xarf, 146 grafema, 46 fonema mavjud. Ingliz tili alfaviti o'zbek o'quvchilari uchun qiyinchilik tug'diradi. (Ingliz tili bilan o'zbek tilidagi o'xshash xarflar va o'xshash bo'lmagan xarflar) A,V,S,D,N,O,R,X,U, ikkala tilda ham bor, lekin o'qilishi boshqacha. "How" o'quvchilar ko'pincha [nau] deb o'qishadi. Yangi xarf tushintirilganda uni ona tilida o'xshash xarf bilan ham solishtirish kerak.

Grafemalarni bilish (u yoki bu xarf birikmasini o'qilishini) ham katta ahamiyatga ega.

[ou] – tion – igh

ow

[au]– oh – ture

Unlilarni urg'uli bo'g'inda o'qilishi ham shundayla epik bo'g'inda "g" xarfidan oldin o'qilishi ma'lum qiyinchiliklarni tugdiradi.

au, oo, ou, ow kabi digraflar g, e, s, undoshlari, th, sh, th, ng,ck, tion, ssion kabi xarf birkmalari o'quvchilar uchun ma'lum qiyinchiliklar tugdiradi.

O'qishga o'rgatishda ayrim aytilishi jihatdan bir xil, lekin yozilishi va ma'nosi har xil bo'lgan omonimik so'zlar ham ancha qiyinchilik tugdiradi. Masalan: tail - tale, too - two, write - right, eye - I va x. k.

Grammatik strukturalarni bilmaslik o'qishda malakalarini hosil qilishda to'sqinlik qiladi. Masalan: He was asked to help the old woman

### **O'qishga o'rgatish**

O'qishning asosan 2 turi farqlanadi: ovoz chiqarib o'qish va ovoz chiqarmay o'qish. Ovoz chiqarib o'qishga o'rgatishda 3 metod kuzatiladi:

1. Tovush metodi (tovushlarni -fonemalarni va xarflarni bir-biriga qo'shib o'qilishi o'rgatiladi).
2. So'zlarni bir-birlariga qo'shib gaplar hosil qilish o'rgatiladi.
3. Gap, gaplarni o'qish o'rgatiladi.

Bu uchala metodning birikishi ya'ni, birgalikda ishlatilishi o'qish malakasini hosil qiladi.

A.P.Starkov o'qishga o'rgatishning 3 bosqichini farqlaydi:

- I. Bosqich: o'qish mexanizmi hosil qilinadi, Bu esa avval og'zaki o'rganilgan leksik-grammatik material asosida amalga oshirilmog'i shart. Bu etapda til hodisalarining ko'rish grafik, motor (tovush) obrazlari o'rtasida assotsimiya (bog'lanish) hosil qilinadi. (4-5 sinflar) boshqacha aytganda ovozsiz o'qish texnikasiga asos solindi.
- II. Bosqich: hosil qilingan o'qish mexanizmi asosida ovozsiz o'qish malakalari o'stiriladi. Bu bosqichda ham o'qish bosqichidagidek o'quv (o'rganish) harakterida kechadi. O'qish uchun ajratilgan matnlarda ayrim notanish so'zlar uchraydi. O'quvchilarda ularning ma'nosini topib olish malakalari o'stiriladi. So'z boyligi ortib boradi. (5-7 sinf).

III. Bosqich: Bu bosqichda turli stilga ta'luqli matnlar o'qiladi. (badiy, siyosiy, ilmiy). O'quvchilar lug'at bilan ishlashni o'rganishadi. Ayrim notanish so'zlarni lug'atsiz bilib olish (ma'nosini topib olish) malakalari o'stiriladi. Shundan yangi axborot olish manbai sifatida foydalaniladi, ovozsiz o'qish yangi axborot olish vositasi xisoblanadi. O'qishdan ta'limiy va tarbiyaviy maqsadda foydalaniladi. (7-10 sinf).

O'qishga o'rgatishda o'quvchilarga matnni o'zlari o'qishlariga imkon berish kerak. Faqat o'qish texnikasi o'stirilayotganda o'qituvchi avval o'zi o'qib berishi mumkin, lekin bunda grafik emas, balki kinestetik obraz o'rganiladi. O'qishga o'rgatish o'quvchilarga xarflarni tanishtirish bilan boshlanadi. Bunda kartochkalardan foydalanish mumkin.

1) o'quvchilarga r, n, e xarflari tushirilgan kartochkalarni tarqatib ulardan "rep" so'zini hosil qilish mashqlari;

2) o'quvchilarni xarf va xarf birikmalarini oqilishini tekshirib ko'rish;

3) "r" xarfiga misollar topish, ya'ni "r" xarfi bilan boshlanuvchi so'zlarni yozish;

4) o'quvchilarga tovushlarni ko'rsatib (masalan: [ou] [ ] [0] [ ]) ular anglatgan xarflarni yozishni so'rash

So'zlarni o'qishga o'rgatishda ham ana shu kabi mashqlardan foydalanish mumkin:

1) have, take, lake, give ... kabi so'zlar ichidan qoidadan tashqari o'qiluvchi so'zlarni topish.

2) o'quvchilardan ular ko'pincha xatoga yo'l qoyadigan ya'ni talaffuz qilganda farqlamaydigan so'zlarni kontrastiv usulda o'qishni so'rash.

Masalan: yet – let; cold – could; come – tome; called - cold va x. k.

3) o'quvchilardan sozlarni bir-birlaridan farqlovchi xarflarni aytishni so'rash.

Masalan: hear – near; since – science; hear – hare; with - which

4) o'quvchilardan ma'lum digraflarni o'z ichiga olgan so'zlarni matndan topishni so'rash. Masalan: oo, ow, igh, sa, th va x. k.

Grafik obrazi bilan talaffuz obrazi mos kelmaydigan so'zlarni o'qishni o'rgatishda transkriptsiyadan foydalanish maqsadga muvofiq. Transkriptsiya 5 sinfdan boshlab o'rgatilishi mumkin, boshlang'ich etapda matn o'qituvchi tomonidan o'qiladi.

Bunday o'qish ma'lum darslargagina ta'luqli. Keyinchalik esa xor bilan o'qish qisqartiriladi, lekin yuqotib yuborilmaydi. Ovoz chiqarib o'qish barcha sinflarda chet til o'rganish vositasi sifatida qaralmog'i va o'qish texnikasini o'stirish bilan bog'liq ko'nikmalarni o'stirishga qaratilishi lozim. Shu maqsadda o'qituvchi quyidagi o'quv turlaridan foydalanadi:

1. Diagnostik o'qish (o'quvchilar o'qiydi, o'qituvchi ularning xatosini kuzatib boradi);

2. Instrukтив o'qish (o'quvchilar o'qituvchi tomonidan ko'rsatilgan na'munaga muvofiq o'qishadi);

3. Nazorat o'qish (test reading) o'quvchilar o'qituvchiga taqlid qilib o'qiydilar;

Ingliz tilida o'qishga o'rgatishda o'quvchilar yo'l qoygan xatolarni aniqlash va tuzatish masalasi ham muhim masalalardan biri. Xo'sh, ularni kim tuzatishi va qanday tuzatishi kerak? G.V.Rogovanning fikricha o'quvchi yo'l qoygan xatosini o'zi tuzatishi kerak. Agar o'zi bilmasa u holda o'qituvchi to'g'rilashi kerak. O'qishga o'rgatishda va o'quvchilarni yo'l qoygan xatolarini to'g'rilashda quyidagi maslaxatga rioya qilish maqsadga muvofiq:

O'qituvchi doskaga ingliz tilida so'z yozib (black) undagi "ck" xarf birikmasining o'qilishini o'quvchilardan so'raydi.

O'quvchilardan biri o'quvchi xatoga yo'l qoygan so'zni o'zbek tilida so'raydi. Masalan: What is the English for "ishlamoq"?



O'quvchilardan biri (yoki o'qituvchi o'zi) tekstni o'qigan o'quvchiga shunday topshiriq berishi mumkin: Find the word "sayr qilmoq" and read it.

O'qituvchi o'zi o'quvchi yo'l qoygan xatoni to'g'rilaydi, o'quvchi esa qaytaradi. O'qituvchi o'quvchi xatoga yo'l qoygan so'zni doskaga yozishni va xato o'qilgan xarf birikmasini ostiga chizishni va uni o'qilish qoidasini so'raydi. Xatoni to'g'rilashdagi tortishuvga sabab bolgan masalalardan biri: "O'qituvchi o'quvchining xatosini u tekstni o'qib bo'lgandan keyin tuzatish kerakmi yoki xatoga yo'l qo'yilgan paytdami?" degan masaladir. Bunda ikkala yo'l ham to'g'ri (izohlash kerak). Agar so'z tekstda ko'proq uchrasa uni xatoga yo'l qo'yilgan paytda to'g'rilash kerak (o'qituvchining o'zi).

Ovozsiz o'qish (Silent reading)

1. Gaplardagi yangi axborotni tushinib olish olish;
2. "Ma'noni topib olish" malakasini o'stirish.

Mashqlar: Quyidagi gaplarni o'qing va o'zingiz tushinmagan, bilmagan so'zlarni ma'nosini tushinishga harakat qiling.

- a) "A man came into the room" gapini o'qing va noaniq artiklni ishlatilishini tushintiring.
- b) Matnni o'qing, undagi yangi axborotni ajratib ko'rsating - I have a bag. The bag is black. It's a new bag. I like my new bag.
- c) quyidagi gaplarni qisqaroq gaplarga aylantiring.

Matnni o'qishdan oldin savollar berilishi mumkin. Bu o'quvchilarni diqqatini matndagi asosiy axborotga qaratadi: Read and tell why Ben doesn't go with Bill. Read and find answer to the questions. Read the text and find the words which describe the room. Read the text and prove that a kind woman.

O'quvchilarni tekstni qanchalik tushinganligini quyidagicha tekshirib ko'rish mumkin:

Find the following sentences in the text, (o'zbek tilida gaplar beriladi);

Correct, the following statements which are not true to the fact;

Recite the text. Answer the questions (why questions are desirable); Translate the text (orally or in the written form);

Write short annotation of the text, (inglizcha yoki o'zbekcha bo'lishi mumkin).

O'quvchilardan biri matnni hikoya qiladi, qolganlari navbat bilan davom etadi. Matnni turli abzatslarini alohida-alohida so'rash mumkin.

## **MA'RUZA**

### **MAVZU: O'QUVCHILAR BILIMINI VA XOSIL QILINGAN NUTQ KO'NIKMALARINI NAZORAT QILISH**

#### **REJA**

1. Chet til o'qitishda olingan bilimlarni, hosil qilingan nutq ko'nikmasi va malakalarni nazorat ishining roli, funksiyasi va ob'ekti.
2. Nazorat qilishning turi va shakllari.
3. Nazorat qilishda qo'llaniladigan usullar.
4. O'z-o'zini nazorat qilish va bunda testlarning roli.

## ADABIYOTLAR

1. И.Я.Ш. журналі N1, 1978.
2. С.Ф.Шатилов Методическая обучения немецкому языку средней школе. 1986.стр . 147-154.
3. А.П.Старков. Обучения английскому языку в средней школе. М.1970. стр. 177-180.
4. А.И.Гез и др. Методическая обучения иностранным языку в средней школе. „ Высшая школа „, 1982. стр 308-318.

### I. Nazorat qilishning roli.

O'quvchilar bilimlarini qay darajada o'zlashtirganliklarini, nutq malaka va ko'nikmalarini o'stirishning turli bosqichlarida hosil qilish darajasini bilish uchun va bundan kelib chiqadigan yoki shu protsesda duch kelinadigan qiyinchiliklarni oldindan aniqlash, ishlatilgan priyom va usullarni bilish uchun nazorat zurrur.

Nazoratning funktsiyalari.

1. Nazorat o'rgatuvchi bo'lishi kerak. Ya'ni nazorat qilish jarayonida ham o'qitiladi. Nazorat qilishning o'rganuvchilik harakteri o'quv jarayonini yaxshilashda namoyon bo'ladi. U samarasiz priyom va usullarni samaralilari bilan almashtirishga yordam beradi. Tilni amaliy jarayoniga o'zgarishlar kiritishga sharoit yaratadi. Metodika adabiyotida nazorat qilishning quyidagi funktsiyalari ma'lum:

1. Korrektsiyalovchi nazorat - materialni o'rganish darajasini aniqlash (qaysi material, ko'nikma va malakani tekshirish kerakligini aniqlash).
2. Ogohlantiruvchi
3. Yangi stimuly beruvchi, o'rgatuvchi
4. Diagnostik funktsiya
5. Tarbiyaviylik
6. Umumlashtiruvchi

Nazoratga qo'yilgan talablar.

1) Har bir o'quvchini yil davomida muntazam tekshirib turish kerak. Bu til materiali ustida sistemali ishlashga va tarbiyani amalga oshirishga yordam beradi.

2) Xar taraflama tekshirish, bu har bir o'quvchini nutq formalarining turlarini qay darajada egallashni aniqlashga yordam beradi

3) Nazoratni amalga oshirishdagi differentsial yondashish. Bu har bir o'quvchiga qiyin bo'lgan til materialini hisobga olishda shunga muvofiq metodlarni tanlashda ko'rinishi mumkin.

4) Nazoratning ob'ektivligi, sub'ektivlikka yo'l ko'yimaslik . Talabchanlik bilan har bir o'quvchiga e'tibor berishni uyg'un olib borish, o'z vaqtida o'quvchini rag'batlantirish, unda o'z kuchiga ishonch hosil qilish va qiyinchiliklardan o'tishga o'rgatish.

5) Bahoni tarbiyaviy ahamiyati.

- a) Tarbiyalash
- b) Qiziqishni o'stirish

Nazorat ob'ekti. Nutq ko'nikma va malakalar. Nazoratning turi va formalari.

1. Nazoratning turlari:

- a) Kundalik
- b) Tematik
- c) Davriy
- d) Yakuniy

O'quvchilarni chet tilidagi amaliy bilimlarini tekshirish o'quv jarayonining muhim komponentlaridan biridir. Shunday nazorat materialini o'quvchilar tomonidan mukammallashtirish darajasini va nutq va malaka, ko'nikmalarini nutqning turli turlarida ishlatish darajasini sistematik ravishda tekshirish vositasi hisoblanadi. Nazorat o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasidagi "Qayta aloqa" vositasi bo'lib u yoki bu til materialini nutq faoliyati turlarining birida ishlatilish darajasini, u o'quvchilar uchun qanday qiyinchilik tug'dirish mumkinligini aniqlashga yordam beradi. Didaktik adabiyotlarda aytilishicha sistemali ravishda o'tkaziladigan nazorat o'rgatish harakteriga ega bo'lib, u materialni hotirada saqlashga va hosil qilingan ko'unikma va malakalarni yuqolmasligiga yordam beradi.

### Tekshirish ob'ektlari.

O'rta maktabda chet tili o'qitish jarayonida nazorat ob'ekti bo'lib birinchi navbatda o'quvchilarning nutq faoliyati turlaridan uchtasini (bilish) egallash darajasi hisoblanadi. Bular gapirish, o'qish, tinglab tushinish va qisman yozuvdan iborat. Tabiiy fanlarda esa birinchi navbatda tekshirish ob'ekti bo'lib, bilim darajasi tushiniladi. Nutq ko'nikmalarini tekshirishda birinchi navbatda grammatik, talaffuz va leksik ko'nikmalarni hosil qilinish darajasi, ya'ni avtomatlashtirilgan darajasi va o'quvchilar tomonidan nutq harakatlarini to'g'ri, aniq bajarilishi hisobga olinadi.

Nutq malakalarini tekshirishda o'quvchilarni shu nutq faoliyati turlarini nutqda kommunikatsiya vositasi sifatida qo'llay olishga e'tibor bermoq kerak. (axborot olish vositasi) masalan:

gapirishda - dialogik va monologik nutqni misol qilib keltirish mumkin.

Tinglab tushinishda - og'zaki bayon qilingan tekstni tushunganlik darajasi. o'qishda esa o'qilayotgan tekstdan kerakli axborotni olish darajasiga e'tibor qaratiladi.

Chet tilini o'qitishning turli bosqichlarida o'quvchilarni nutq faoliyati turlarini egallashga qo'yilgan talablar turlicha, shuning uchun nazorat qilishda bularni hisobga olish kerak.

Masalan: 5-6-7-8-9 - sinflar. Bular dasturda ko'rsatiladi.

Dialogik va monologik nutqni tekshirishda o'quvchilar nutqini shu mavzuga mos kelish kelmasligi, shu mavzuga mos til materialini qo'llanilishi, uni chet til normalari nuqtai-nazaridan qanchalik to'g'riligi (M: grammatik, leksik, fonetik) nazoratning sifat kriteriyasi bo'lishi kerak. Son miqdoriy kriteriya bo'lib, nutq birliklarini qo'llanilishi, o'quvchilar nutqi xajmiga hizmat qiladi.

### Dastur tahlili

O'rta maktabda chet til o'qitish dasturida dialogik nutqqa quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Suhbat olib borish malakasi (fikir almashish), savol-javob replikalarini qo'llay bilish, har bir suhbatdoshning grammatik nuqtai nazardan to'g'ri tuzilgan replikalar soni 5-7. Bu sinfdan sinfga ortib boradi.

### Monologik nutqqa qo'yilgan talablar:

1. Tayyorgarliksiz situatsiyaga muvofiq, o'rganilgan leksika-grammatik material asosida fikr bildirish;
2. Voqea-hodisalarga, faktlarga o'z munosabatini izxor eta bilish. Nutq xajmi;
3. 8-12 ta grammatik nuqtai nazardan to'tri tuzilgan gap.

### Tinglab tushinishdagi sifat ko'rsatkichlari:

1. Tinglanayotgan nutq harakteri (magnitafon yozuvi yoki jonli nutq, ya'ni suhbatdosh nutqi)
2. Tushunganlik darajasi: nutq tezligi. 1-2 minutli tekst, 9-12 so'z har bir gapda. 2% notanish so'z.
2. o'qish sifat ko'rsatkichlari, tushunganlik darajasi, umumiy tushunchaga ega bo'lish, to'la, aniq tushinish, til materialining harakteri.
3. o'qishning sifat ko'rsatkichlari: tushunganlik darajasi, umumiy tushunchaga ega bo'lish, to'la, aniq tushinish; til materialining harakteri: tanishtiruv materiali, notanish so'zlar, o'qish rezligi, tekst hajmi.
4. O'qishga qo'yilgan talablar : badiiy va ilmiy ommabop adabiyotlardan adaptatsiya qilingan matnlarni o'qish. O'qish tezligi 340-500 ta so'z 7-10% notanish so'lar.

#### Nazoratning turlari

- a) Kundalik o'zlashtirishni hisobga olish;
- b) Tematika
- c) Davriy
- d) Yakuniy nazorat
- e) Tematik nazorat

Tematik nazorat chet til o'qitishda keng tarqalgan, bunga sabab chet tilda asosiy tashkil qilish printsipti tematik printsipti ekanligidir. Tematik nazorat har bir mavzuni o'zlashtirib bo'lingandan keyin hosil qilingan ko'nikma va malakalarni va o'rganilayotgan til materialini o'zlashtirish darajasini qaytarish uchun ajratilgan darslarda tekshirishni ko'zda tutadi. Bu darslar darslik avtorlari tomonidan belgilangan.

Davriy nazorat - Har bir chorak, yarim yillik oxirida tekshirish. M: darsliklarda bunga mos mashqlar berilgan.

Yakuniy nazorat - yil oxirida tekshirish, imtixon. Imtixon mazmuni va materiali maorif vazirligi tomonidan belgilanadi.

#### Tekshirish shakllari:

a) individual; b) frontal; v) og'zaki yoki yozma; s) bir tilli yoki ikki tilli.

Gapirish malaka va ko'nikmalarini tekshirishning eng aniq shakli bu og'zaki nazoratdir. Shuning uchun og'zaki nutqqa xos bo'lgan eng muhim hususiyatlarni bilishga yordam beradi. M: javob reaksiyasi; nutq avtomatizmlarini nutq situativligini va x. k. Nutqni mazmuni va to'g'riligi yozma shaklda yozuv yordamida tekshirilishi mumkin. Qiyinchilik: nutq xajmini va yo'l qo'yilgan xato-larni tahlil qilish. Og'zaki nazorat frontal, individual va gruppaviy bo'lishi mumkin. Frontal: savol-javob yo'li bilan.

Tinglab tushinishni tekshirish: a) bir tilli; b) ikki tilli;

Tinglab tushinish shakliga ko'ra: og'zaki - yozma. Funktsiyasiga ko'ra: tekshiruvchi, o'rgatuvchi, situmul yaratuvchi bo'lishi mumkin;

## MA'RUZA

### MAVZU: CHET TILINI O'QITISHDA MASHQ MUAMMOSI. ULARNING TYPOLOGIYASI VA MASHQ BAJARISHDAGI KETMA-KETLILIK REJA

1. Mashqlar tipologiyasi. Bu hususidagi turli qarashlar.
2. Nutq faoliyatining turli shakllarini o'zlashtirishga qaratilgan mashqlarning tiplari va ko'rinishlari.
3. Mashq sistemasi. Uning komponentlari. (podsistema, kompleks, seriya, mashqlar guruhi,)
4. Malaka va ko'nikmalarni mashqlar sistemasida aks ettirilishi.

#### ADABIYOTLAR.

1. Shatilov S, F Metodika obucheniya nemetskomu yazyuku v sredney shkole, L. Prosveshenie 1977 god, str. 65-72,
2. Passov E. I. Uslovno - recheviye uprajneniya. Xoshimov U. X. va I. Ya. Yakubov Ingliz tili o'qitish metodikasi. 1893 yil. O'qituvchi nashriyoti
3. J.Djalolov O'rta maktabda ingliz tili o'qitish metodikasi. Toshkent, O'qituvchi nashriyoti 1997 yil.

Chet tili o'qitishning natijalari birinchi navbatda mashqlar sistemasi orqali aniqlanadi, chunki chet tili o'rganishdagi amaliy maqsad ya'ni nutq faoliyatining barcha turlarini egallash mashqlar yordamida amalga oshiriladi.

Demak mashqlar nima?

Mashq deganda ma'lum bir faoliyatni egallashga qaratilgan yoki shu faoliyatni o'quv situatsiyalarida takomillashtirishga qaratilgan alohida yoki ketma-ket bajariladigan operatsiyalar yoki harakatlar tushiniladi.

Mashqlarga qo'yilgan talab shundan iboratki ular hosil qilinayotgan malaka va ko'nikmalarga adekvat yani mos bulmogi kerak. Agar trenirovkaga mo'ljallangan mashqlar nutqiy harakterga ega bo'lmasa hosil qilinayotgan ko'nikma va malakalar kommunikativ harakterga ega bo'lmaydi. Shuning uchun ham nutq ko'tarmasi faqat nutqiy faoliyatda nutqiy vaziyatlar asosida hosil qilinmogi kerak.

Demak, nutq ko'nikma va malakalari til mashqlarida emas, balki shu nutqiy ya'ni kommunikativ faoliyatni o'zida aks ettiruvchi yoki unga yaqin bo'lgan nutqqa yo'naltirilgan (uslovno – recheviye) mashqlarda hosil qilinmogi zarur.

Metodik adabiyotlarda mashqlarning turlicha klassifikatsiyalarini ko'rishimiz mumkin. Bu turlicha printsiplarga asoslanadi. M: kommunikativlik printsiptiga ko'ra uch tipdagi mashqlarni farqlashimiz mumkin:

1. Nutqiy bo'lmagan mashqlar.
2. Nutqqa yo'naltirilgan trenirovkaga mo'ljallangan mashqlar:
  - a) Til aspektlariga kora fonetik, grammatik va leksik mashqlar.
  - b) Ijodiy harakterdagi mashqlar.
3. Haqiqiy nutqiy mashqlar.

Ko'nikmalar hosil qilishda eng muhim ahamiyatga ega mashqlardan bo'lib nutqqa yo'naltirilgan mashqlar hisoblanadi. Haqiqiy nutqiy mashqlar esa barcha nutq faoliyati

turlarida nutq malakalarini hosil qilishga yordam beradi. Nutqiy bo'lmagan mashqlar ikkiga bo'linadi: Til mashqlari va nutq oldi mashqlari.

Til mashqlari aspektlar bo'yicha bo'lib, til hodisalarini o'rganishga yonaltirilgan. M: Bo'laklardan (so'zlardan) butun gap hosil qilish, qoidaga ko'ra gaop tuzish, transformatsiyasi asosida gap strukturasi o'zgartirish va x. k.

Endi biz til va nutq ko'nikmalarini hosil qilishga qaratilgan mashqlarni ko'rib o'tamiz. Eng ko'p tarqalgan mashq turlaridan hozirgi vaqtda quyidagilar hisoblanadi:

1. Tayyorlov yoki mashq yoki mashq qilishga mo'ljallangan mashqlar.
2. Ijodiy nutqiy mashqlar.

Birinчисiga til mashqlari kiradi (leksik, fonetik, grammatik). Ularning harakterli hususiyati shundaki bunda nutqiy konikmalar xosil qilishga emas, balki til xodisalarining shaklini o'rganiga etibor qaratiladi. Demak ular nutq mashqlari bo'la olmaydi, chunki til materialini o'quvchilar tomonidan nutqda ishlatishni avtomatlashgan darajaga ko'tara olmaydi. Til birliklarini nutq faoliyatidan tashqarida trenirovka qilishga, avtomatlashtirishga qaratilgan barcha tayyorlov mashqlari nutq oldi mashqlari deyiladi. Bularga o`rin almashtirish va taqlid qilishga asoslangan mashqlar kiradi.

Nutq mashqlari.


Ular sof nutq mashqlari va nutqqa yo'naltirilgan mashqlarga bolinadi. Ular o'quv nutq mashqlari va aspektlarga yo'naltirilgan mashqlar hisoblanadi (ya'ni fonetik, grammatik, leksik.).

Nutqiy bo'lmagan mashqlar.

Nutq oldi mashqlari. Maqsadi: 1) Til xodisalarini nutq faoliyatidan tashqari alohida avtomatlashtirish. 2) Til mashqlaridan iborat analitik mashqlar (retseptiv, reproduktiv) kozlangan maqsad va qoidaga muvofiq gap tuzish, til hodisalarini tahlil qilish, transformatsiya va x. k.

Nutq ko'nikmalarini hosil qilishda eng katta ahamiyatga ega bo'lgan mashqlar bu nutqqa yo'naltirilgan mashqlar xisoblanadi. Ular o'quv harakteriga ega bo'lgan mashqlardir. Bunday mashqlar bir tomondan o'rganilayotgan nutq faoliyati turini o'ziga xos tamonlarini, ikkinchi tomondan esa til materialini o'quvchilar uchun qiyin bo'lgan tomonlarini hisobga oladi.

Komunikativ yo'nalishga ega bo'lishiga qaramay chet til o'qitish jarayoni sun'iy hosil qilinganligi uchun uni sof informativ motivatsiyaga asoslangan deyish noto'g'ri bo'lar edi. Shuning uchun ham sun'iy sharoitda mashqlarni sof komunikativ mashq deb atash to'g'ri emas. Natijada ba'zi metodistlar o'quv protsessida ularni ishlatishni inkor qilishadi. Sababi ular informativ emas ekanligini takidlashadi. Boshqalar esa uzoq vaqt sof nutqiy mashqlarni o'zi bilangina chegaralanib qolib ularni nutq faoliyatidagina emas balki o'quv, o'qitish harakteriga ham ega ekanligini esdan chiqarib qo'yishadi. M : O'qishga o'rgatish vositasi bolibgina qolmasdan nutq faoliyatining boshqa turlariga (ya'ni og'zaki nutq va yozuvga) o'qitish vositasi ham xisoblanadi. Shunday qilib ko'nikmalar hosil qilishdagi mashqlarni quyidagicha tasniflash mumkin.



Mashqlar qaysi tilda bajarilishiga ko'ra 2 ga bo'linadi.

Bir tilli va kki tilli mashqlar.

Bajarilish formasiga ko'ra og'zaki va yozma bo'lishi mumkin.

Nutq faoliyatining turlariga ko'ra: gapirishga tinglab tushinishga o'qishga va yozishga orgatuvchi masqlar farqlanadi.

Nimaga asoslanligiga kora: situasiyaga, mavzuga, mavzu fragmentiga, matnga, matn bilan bo'lgan munosabatga, kurgazmali qurollar ishlatishga doir mashqlarni keltirish mumkin.

Konikmalar hosil qilish bosqichlariga ko'ra:

1. Nutq oldi til mashqlari.
2. Trenerovka mashqlari, ya'ni avtomatizmlar hosil qilish.
3. Til materialini o'zgarib turuvchi situatsiyalarda qo'llashni ta'minlovchi mashqlar.

Shuni aytish kerakki nutq ko'nikmalari harakteriga va nutq malakalarini komponenti hisoblanadi. Chet tili o'qitishda esa nutq malakalarini hosil qilish asosiy maqsad hisoblanadi. Nutq malakalarini hosil qiluvchi mashqlar. Ular til hodisalarini kommunikativ maqsadga mos qo'llashga o'rgatuvchi mashqlardir.

Ma'lumki nutq malakalarining asosiy hususiyati quyidagidalarda korinadi.

1. Til hodisalarini, til materialini muammoli vazifalarni yechishga qaratilgan kommunikativ munosabat, maqsad va shartlarga mos holda ijodiy qo'llash:
2. U yoki bu nutq faoliyatining turida chet tili qo'llashdagi tabiiy motivasiya. (istak, xohish) masalan: ona tili bilan chet tili bu har xil amalga oshiriladi.
3. Til materialini qo'llashda nutq harakatini avtomatlashtirish ya'ni birinchi e'tiborni til formasiga emas, balki mazmuniga qaratish.
4. Murakkab nutqiy harakatlarni bajarishdagi engillik, maqsadga muvofiqlik. (ixchamlik, harakatchanlik, mukammallik, avtomatlashganlik, barqarorlik va x. k.)

Demak, nutq malakasini hosil qiluvchi mashqlar quyidagi ta-lablarga javob berishlari kerak.

1. Iloji boricha tabiiy motivatitsiyaga asoslanishi.
2. Bog'liq til materiali monologik yoki diologik, og'zaki va yozma asosiga qurilishi kerak.
3. O'quvchilarni o'rganilgan til materialini nutq faoliyatining barcha turlarida kommunikatsion qo'llashga o'rgatishga qaratilgan bo'lishi kerak.

4. Har bir nutq faoliyatining turini o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi kerak.

## **MA'RUZA**

### **MAVZU: O'RTA MAKTABLARDA CHET TILI PREDMETI BO'YICHA OLIB BORILADIGAN SINFDAN TASHQARI VA MAKTABDAN TASHQARI ISHLAR.**

#### **REJA**

1. Sinfdan tashqari ishlarning maqsadi va mazmuni.
2. O'qitishning turli bosqichlarida sinfdan tashqari ishlarning shakllari.
3. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga qo'yilgan talablar.

#### **ADABIYOTLAR**

1. EY.Gez, M.V.Lyaxovitskiy, A.A.Mirolyubovi va boshqalar. Metodika obucheniya inostrannym yazykam v sredney shkole. Moskva 1932.str. 363 – 371
2. S.F.Shatilov. Metodika obucheniya nemetskomu yazyku v sredney shkole. Leningrad 1977. str. 232 – 237
3. J.J.Jalolov Ingliz tili o'qitish metodikasi. Toshkent, "O'qituvchi" nashriyoti.

#### **SAVOLLAR**

1. Chet tili predmeti yuzasidan olib boriladigan sinfdan tashqari ishlarning maqsadi, mazmuni va tashkil qilish shakllarini ayting.
2. Fakultativ mashg'ulotlarni darsdan farqi nimada?
3. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishning ommaviy va yakka tartibdagi shakllariga misollar keltiring.
4. Sinfdan tashqari ishlarga bo'lgan qiziqishni (motivatsiyani) o'stirish uchun nima qilish kerak?
5. Sinfdan tashqari ishlar deb nimaga atiladi?

Pedagogikada sinfdan tashqari ishlar deganda ta'limiy va tarbiyaviy harakterga ega bo'lgan., sinfdan tashqari vaqtda tashkil qilinadigan va o'qitiladigan ishlarga atiladi. (Esipov KII Pedagogika 1967, 323 bet. )

Demak, sinfdan tashqari ishlar ham o'quv tarbiyaviy jarayonning bir qismi bo'lib amaliy, ta'limiy va tarbiyaviy maqsadni ko'zlaydi. O'rta maktabdagi barcha predmetlarga o'qitishda sinfdan tashqari ishlar muhim rol o'ynaydi. Ular asosan 2 muhim vazifani o'z ichiga olgan: Chet tiliga bo'lgan qiziqishni o'stirish hamda bilimlarini chuqurlashtirish, ko'nikma va malakalarni o'stirish.

O'quvchilarning bo'sh vaqtini ularning har tomonlama kamolotga etkazish, siyosiy-g'oyaviy, mexnat va estetik tarbiyani amalga oshirish maqsadi asosida tashkil etish. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarni bilimni chuqurlashtirishi, chet til ko'nikma va malakalarni o'stirish, vatanparvarlik ruxida tarbiyalashga yordam bermogi' kerak.

Sinfdan tashqari ishlar uchun harakterli narsa og'zaki nutqni o'stirishdir. Asosiy farqlar:

1. Qatnashishning erkinligi; (u yoki bu turni o'zlari erkin holda tanlab olishlari kerak)



2. Darsning strukturasi nisbatan erkinlik; (parkda, muzeyda, hovlida o'tish mumkin)
3. Qat'iy nazoratning yo'qligi;

Sinfdan tashqari ishlar chet tilida konsert, kecha, yig'ilish o'tkazish, stend chiqarish va devoriy gazetani bezash orqali olib borilishi mumkin. Bunda o'quvchilardan mustaqillik, ijo'diylik, faollik talab qilinadi.

Yuqori sinflarda sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish shakllari: "Tarjima to'garagi": chet tilida pessarlar qo'yish, badiiy adabiyotdan parcha o'qish; she'rlarni o'qish, qogirchoq teatri tashkil qilish shakllarida olib borish mumkin.

### **SINFDAN TASHQARI ISHLARGA QO'YILGAN TALABLAR.**

Darsda va sinfdan tashqari ishlarning o'zaro bog'liqligi, darsda hosil qilingan ko'nikma va malakalar sinfdan tashqari ishlar vaqtida rivojlantiriladi. Darsdan tashqari paytda chet tilida muloqatda bo'lish qiziqishni (motivatsiyani) o'stirishi manbai bo'lishi mumkin.

Bir oz yangi material berish maqsadga muvofiq. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish va o'tkazishda yangi o'quv materialni (til va nutq) hajmini ko'paytirib yubormaslik kerak. Bu qiziqishni susaytirib yuborishi mumkin;

Sinfdan tashqari ishda ishlatiladigan material o'quvchilar uchun qiziqarli, axborotga boy va o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan bo'lishi kerak;

O'quvchilar tomonidan ular o'zlari erkin tanlab olgan ishlarni bajarishni shartligi, sinfdan tashqari ishlarni bir maqsadga qaratilganligi va doimiyliigi;

O'quvchilarning qiziqishini uyg'otishda sinfdan tashqari ishlarni o'tkazish joyi, vaqti kabi faktorlar ham muhim rol o'ynaydi.

### **SINFDAN TASHQARI ISLARNI O'TKAZISH YO'LLARI**

- a) Ommaviy
- b) Gruppaviy
- c) Individual (yakka tartibda)

Kechalar utkazish 1 yilda 2 martadan oshmasligi kerak. Dastur tuzish, instsenirovka – saxnalashtirish, ashula, intermediya, va x. k. o'tkazishni rejalashtirib olish zarur. Til materiali o'quvchilar uchun tushinarli bo'lishi kerak. Bellashuvlar, viktorinalar o'tkazish ham sinfdan tashqari ishlarga kiradi. Masalan:

- a) ifodali o'qish; (she'r, hikoya, latifalar)
- b) mavzular bo'yicha tayyorgarliksiz hikoya qilib berish.
- c) rasmlarni tasvirlash
- d) tarjimonlar bellashuvi
- e) yozma tarjima bellashuvi va x. k.

Sinfdan tashqari ishlarning gruppaviy shakllari:

Tugaraklar - sistemali, rejali mashg'ulot, og'zaki nutqni o'stirish to'garagi, qo'g'irchoq teatri.

Individual shakli - O'quvchilarning individual xususiyatlarni aniqlash asosida ularga she'rlar yodlash, ashula o'rganish, albomlar tayyorlash, ko'rgazmali qurol tayyorlash kabi topshiriqlarni berish mumkin.

## MA'RUZA

### MABZU: DARSNI REJALASHTIRSH

#### REJA

1. Rejalashtirishning ahamiyati.
2. Tematik retalashtirsh.
3. Darsning asosiy komponentlarini rejalashtiri.

#### ADABIYOTLAR

1. J.Jalolov. Chet til o'qitish metodikasi. Toshkent, "O'qituvchi" 1995 yil.
2. U.X.Xoshimov, I.Yo.Yoqubov. Ingliz tili o'qitish metodikasi. Toshkent, "O'qituvchi" 1994 yil.
3. Rogova G.B. Metodika, obucheniya angliyskomu yazyku. "Prosveshenie" 1997.
4. Adrian Doff. Teach English. A training course for teachers. Cambridge. University Press 1988.

#### SAVOLLAR

1. Reshlashtirish qanday ahamiyatga ega?
2. O'quv jarayonini rejalashtirishda nimalarga e'tibor bermoq kerak?
3. Tematik, rejalashtirishni qanday tushunasiz?
4. Kundalik dars rejasining tarkibiy qismlarini sanab, izohlab bering?
5. Chet tili darsi mazmuni va mohiyati hususida metodik adabiyotlarda qanday fikr bildirilgan?

Rejalashtirish o'rta maktablarda o'rganiladagan barcha predmetlarni shu bilan birga chet tili o'rgatishni ham muvaffaqiyatli amalga oshirish garovidir. Rejaning qaysi turi bo'lmasin ( xoh dars rejasi, xoh tematik, kalendar yoki yakuniy) u o'quv materialini barcha psixologik va metodik qonuniyatlar, printsiplar asosida ma'lum bir davrga bo'lib o'rganishni taqozo etada va tegishli ko'nikma va malkalarni o'stirishni nazarda tutadi.

Rejalashtirishning oson va qiyinchilik tomonlari:

- a) Boshlangich bo'sqichda (4-sinf) chet tili o'qitishni rejalashtirish rejalashtirishi oson.
- b) Agar o'qituvchi sinfni boshqa bir o'qituvchidan qabul qilib olsa va o'quvchilarning nutq faoliyatining turlari bo'yicha malaka va ko'nikmalarni bilmasa qiyin.

Darsni rejalashtirish o'quv yili boshlanmasdan bir hafta oldin bajariladi. O'qituvchi o'z bo'lajak o'quvchilarini chet tili bo'yicha o'zlashtirishini oldindan bilishi kerak. O'quv jarayonini rejalashtirishda o'qituvchi quyidagilarni bilishi shart O'rta maktabda chet tili o'qitishning maqsadi va har bir sinfda shunga mos malaka va ko'nikmalar hosil qilishga qo'yilgan talablarni yaxshi bilishi shart. Har bir sinf uchun belgilangan dastur materialini, darslikning tuzilishini va boshqa o'quv qo'llanmalarini yaxshi bilishi kerak. O'qitishning shart-sharoitlarini, o'quvchilarning individual hususiyatlarini, psixologik qonuniyatlarni, nutqiy malaka va ko'nikmalarni hosil qilish bosqichlarini yaxshi bilishi talab etiladi.

Zamonaviy chet tili darsiga qo'yilgan asosiy metodik talablarni ma'lum bir sinf o'quvchilarining chet tili o'rganish darajasini, ularni chet tili predmetiga bo'lgan munosabatini bilish rejaltirishdan kozlangan o'quv samaradorligini oshirishga yordam beradi.

## **TEMATIK REJALASHTIRISH**

Chet tili o'qitishni muvaffaqiyatli bo'lishi uchun o'qituvchi rejalashtirish turlaridan xabardor bo'lishi lozim:

1. Tematik rejalashtirish;
2. Dars rejasi (kundalik dars rejasi);

Tematik rejalashtirishning asosiy maqsadi bu chet tili o'qitishning maqsadi, vazifalari, til materialining xajmini va ketma-ketligini aniqlash va shunga mos ravishda malaka va ko'nikmalar hosil qilish yollarini aniqlash. O'qituvchi tematik rejani tuzar ekan darsda yuzaga keladigan, kelishi mumkin bo'lgan fonetik, (tovushlar, urg'u, intonatsiya) grammatik va lug'aviy qiyinchiliklarni aniqlashi kerak. Rejalashtirishda qilinadigan birinchi muhim vazifa darsda yoki darsning turli davrlarida, qismlarida qilinishi kerak bo'lgan ishlarni aniqlab olish zarur. Shuni aytish kerakki, ba'zan biz guvohi bo'ladigan quyidagi vazifalar, ya'ni "Sinf o'quvchilarini ingliz tilida yaxshiroq gapirishga o'rgatish", "O'quvchilarni tinglab tushunishga o'rgatish", yoki "O'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini o'stirish" kabilar abstraktdir chunki ularni ayrim bir darsda bajarib bo'lmaydi. Shuning uchuch qo'yiladigan vazifa aniq bo'lishi kerak. Masalan: "O'quvchilarni quyidagi so'zlarni ma'nosini eshitib tushunishni va og'zaki nutqda qo'llashga o'rgatish" kabi maqsadga dars yakunida erishish mumkin.

Quyidagi affikslarni ishlatib gaplar tuzishga va ularni nutqda qo'llashga o'rgatish;  
O'quvchilarni kuyidagi so'zlarni lug'atdan topishga o'rgatish;  
O'quvchilarni internatsional so'zlarni o'qib yoki eshitib tushinyshga o'rgatish;  
Tekstni o'qiyatib notanish so'zlarni kontekst yordamida tushunishga o'rgatish;  
Fellarni Perfect zamonidagi shakillarini berilgan nutqiy vaziyatlarida qollashga o'rgatish kabi maqsadlarga ayrim bir darsda erishish mumkin.

## **SXEMALI REJALASHTIRISH**

Sxemali rejalashtirish bir necha bir-biriga bog'liq bo'lgan etaplarni o'z ichiga oladi. Masalan: Yillik reja; tematik reja; dars rejasi.

Yillik rejalar darsliklar mualliflari tomonidan o'quv paragraflariga muvofiq holda tuzilib o'quv komplekslarining mazmuniga va strukturasi, o'quvchilarning yosh hususiyatlariga hamda zamonaviy dars tuzilshi nazariyasiga asoslangan bo'ladi.

Yillik reja o'z navbatida:

- 1) yarim yillik
- 2) chorakli rejalariga bo'linadi.

Bunda mavzular va paragraflar konkretlashtiriladi. U har bir mavzuni o'rganishga ajratilgan dars soatini, bilimlar ko'lamini va nutq shakllarini, oq'ish darajasini, o'tkaziladigan nazorat turi harakterini va vaqtini hisobga oladi, ammo shuni aytish kerakki har qanday yillik reja yaxshi tayyorgarlikka va to'la dars soatiga ega bo'lgan sinfga mo'ljallangan. Agar biron bir sababga ko'ra bu rejadan chetga chiqiladigan bo'lsa u holda

barcha o'zgarishlar yarim yillik va choraklik rejalarda o'z aksini topishi kerak. U chet tili o'qituvchilariga shahar yoki tuman metod birlashmalari tomonidan tavsiya etiladi.

## TEMATIK REJA (UNIT PLAN)

Metod birlashma tomonidan ko'riladi. Lekin u o'qituvchining tashabbuskorligini cheklab qo'ymasligi kerek. Ma'lumki chet tilini o'qitish jarayoni ijodiy jarayon, shuning uchun ham agar o'qituvchi ma'qul ko'rsa, bu rejaga ma'lum o'zgartirishlar kiritishi mumkin. Tematik rejaning asosiy vasifasi bu ma'lum mavzuni o'rganish natijasida erishiladigan yakuniy maqsadni mukammallashtirishdir. Tematik rejalashtirish ishdagi muvaffaqiyatini aniq sezishga, nutq faoliyatini turlarini to'g'ri taksimlashga va hosil qilinayotgan ko'nikma va malakalarni kuzatib borishga, hamda sinfda bajariladigan, uyda va boshqa joylarda bajariladigan ish shakllari o'rtasidagi munosabatni aniqlashga yordam beradi.

## KUNDALIK REJA

1. Ma'lum bir darsda yakunida qo'lgan maqsadga erishish;
2. Qo'yilg'an vazifani amalga oshirish uchun qanday til materialini-o'rganishni;
3. Bu maqsadga qanday erishish yo'llarini aniqlab beradi.

Chet tilida o'qitishni muvaffaqiyatli bolishini o'ylagan o'qituvchi har bir dars rejasini aniq tuzib chiqadi. Ayrim bir dars rejasidan birorta na'muna keltirib o'tish darsni rejalashtirish va shunga asosan tashkil qilish xususida kengrok tushuncha olishga yordam beradi shuning uchun quidagi bir dars rejasi na'munasini keltirib o'tish maqsadga muvofiq.

**Mavzu:** \_\_\_\_\_

Dars maqsadi: a) ta'limiy va amaliy \_\_\_\_\_  
b) tarbiyaviy \_\_\_\_\_

1. Yangi grammatik materialni tushiyatirish va mustaxkamlash;
2. Mavzu bo'yicha og'zaki monologik nutq malaka va ko'nikmalarini hosil qilish;
3. Darsning jixozlanishi: 1) rasmlar, 2) magnitafon yozuvi.
4. Darsning boshlanishi: tashkiliy davr - Salomlashish, davomatni tekshirish va til muxitini xosil qilish)
5. Fonetik mashgulot: (qisqa she'lar yangi so'zlar, tovushlar va x. k.)
6. Uy vazifasini tekshirish:
7. Yangi o'quv materialni ma'lum ketma ketligda o'quv jarayoniga kiritish.
8. Turli mashqlar yordamida yangi o'quv materialiga mos nutqiy ko'nikmalarini hosil qilish.
9. O'rganilayotgan til materialini nutqiy vaziyatlarda qollashni mashq qilish.
10. Baholash:
11. Uy vazifasi:
12. Dars oxiri.

## CHET TILI DARSII.

Bu masala ko'plab nazariyotchi pedagoglarni va praktik o'qituvchilarni asosiy ishidir. Ko'plab monografiyalar, maqolalar yozilgan bu haqda. M: .Kazantsev I. E Rogova G. V. N1.1968. Darslarni olib borilishining talabga javob bermaydigan darajadiligining ekanligini sabablarini quidagicha belgilash mumkin:

- a) Amaliyotni yangi metod va usullardan hamda ilmiy izlanishlar natijalaridan maqsadga muvofiq foydalanilmayotganligi;
- b) Dars nazariyasini kam ishlanganligi.
- c) Zamonaviy ilgor pedagogic texnologiyalardan foydalanishga kam etibor.

## **CHET TILI DARSINI MAZMUNI VA MOHIYATI.**

Yaxshi darsning o'ziga xos hususiyatlari pedagogik adabiyotlarda keng yoritilgan. Masalan: M. A. Danilov va B. P. Esipovlar darsning muvaffaqiyatli bolishi uchun quyidagilarni keltiradi:

- dars mazmuni va maqsadi o'quvchilarning yosh xususiyatlariga to'g'ri kelishi kerak;
- darsning ta'limiy va tarbiyaviy tomonlarini birligi;
- darsning barcha etaplarida o'quvchilarning faolligi;
- darsning har bir vaqtdan maksimal foydalanish;
- darsni tegishli jixoslash;
- dars so'ngida uning natijalarini sezilarli bo'lishi.

A. I. Kochetovning fikricha:

- ta'limiy maqsadni tarbiyaviy maqsadga bo'ysundirilishi;
- kollektiv va individual ish shakllarining birligi;
- turli metodlardan samarali foydalanish;
- xotira, diqqat va tafakkurni o'stirish qonuniyatlarini hisobga olish;

E E Vereshagina, F. M. Rabinovich darsni yana ham kengroq harakterlaydi. Chet tili darsida quyidagilarga etibor berilishi kerak:

- o'quvchilarning nutq konikmalarini o'stirish;
- bir maqsadli ketma-ketlikka amal qilinishi;
- nutq faoliyatining stimullarini rang-barang va ma'nodorligi;
- qo'llanishdagi usullarni optimalligi;
- o'quvchilarga dars maqsadini va uning ba'zi etaplarining vazifalarini tushuntirish;
- umumiy va individual ish shakllarini qo'shib olib borish;
- o'quvchilar qiziqishini dars davomida susaytirib yubormaslik;
- ularning shaxsi va xis-tuyg'ulari bilan hisoblashish;
- ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarni darsda xal qilish;

L.D.Salitra: darsni chet tilida o'tish, amaliyotga yo'naltirilganlik, o'quvchilarning yuqori darajada faol bo'lishi, mavzuning asosiy maqsadi va dars oldiga qo'lgan vazifalarni aniq belgilash ko'p jixatdan dars samaradorligini kafolatlaydi degan fikrni bildiradi.

## **XULOSA**

Dars o'quv tarbiyaviy ishlarni olib borishni tashkil qilishning asosiy shaklidir.

Harakterli hususiyati: chet tilida nutq faoliyati; maqsadi va unga erishshning yo'llarini aniq belgilash.

O'quv tarbiyaviy faoliyatning maqsadi: o'quvchilarga bilim berish va chet tilida nutqiy malaka va ko'nikmalarni hosil qilish; til materiali xarakteri va nutq faoliyatining turlariga qarab bu maqsadlar konkretlashtirilishi mumkin. Bizga kerakli muhim narsa bu

qo'yilgan maqsadga erishish vositalarini to'g'ri aniqlash, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatni bir biriga o'zaro xurmat asosiga qurish va darsni tashkil qilishdir.

L. N. Tolstoy: Agar o'qituvchi o'quvchini ham ota ham ona sifatida ardoqlasa u o'qituvchi barcha kitoblarni o'qigan, lekin kasbini ham o'quvchilarni ham sevmaydigan o'qituvchidan yaxshidir.

O'quvchilar orasida o'tkazilgan ayrim so'rovlarning natijasini keltirib otish darsga qo'ilgan talablarni va o'quvchilarning darsga va o'qituvchining kasbiy tayorgarligiga nisbatan fikrlariga oydinlik kiritish mumkin. Otkazilgan so'rovga kora:

77,4% kasbini yaxshi bilgan, 59,7% darsni qiziqarli utgan 48,6% o'qituvchi shaxsi, uning o'quvchilariga muxabbati 31,7% o'qituvchining harakatchanligi darsning samaradorligiga ta'sir qiladi degan fikrni bildirishadi.

Chet tili o'qituvchisi doim izlanishda bo'lmog'i zarur. Har darsda o'quvchilarga biror yangi narsa o'rgatish; yangi usullarini amalda sinab ko'rish maqsadga muvofiq;

O'quv tarbiyaviy faoliyatning ikkinchi qismini o'quvchilar faoliyati tashkil qiladi.

Shunday qilib darsning mohiyati o'qituvchi o'quvchi faoliyatini tashkil qilishdir.

Bu amalda mashqlar bajarish asosida olib boriladi, lekin shuni takidlash lozimki mashqlar alohida-alohida emas, balki bir sistemaning tarkibiy qismini tashkil qiladi. Dars mazmuni esa o'z navbatida maktab dasturlari, darsliklari, dars va tarbiyaviy jarayoning boshqa tashkiliy shakllari bilan o'lchanadi.

U ikki komponentdan tashkil topadi. O'qituvchi va o'quvchi faoliyati. Dars qaysi tilda o'tilishi kerak degan masala ham munozarali masalalardan xisoblanadi.

Yangi mavzuni yoritishda va eslab qolishda ona tilida tushuntirish maqsadga muvofiq.

H. Palmer 10% dars ona tilida bo'lishi qolgan qismi esa chet tilida tashkil qilinishini maqsadga muvofiq deb bilsa bo'shqa bir olim professor

Belyaev B.V darsning 5-15% ona tilida qolgan qismida esa organilayotgan chet tilida bo'lishi maqulligini aytadi. Shu bilan birga u yuqori sinfda o'qituvchining nutqi o'quvchilar nutqiga nisbatan kamroq foizni tashkil qilishi maqsadga muvofiqini aytadi.